

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Namangan davlat universiteti
pedagogika fakulteti
5111700-boshlang'ich ta'lim, sport,
tarbiyaviy ish yo'nalishi
401-guruh talabasi**

UMAROVA YULDUZXON A'ZAMJON qizining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “Boshlang'ich sinf o'quvchilarni
bayon yozishga o'rgatish metodikasi”**

Ilmiy rahbar:

p.f.n. Y.Shaamirova

Namangan – 2017

Mavzu: “Boshlang’ich sinf o’quvchilarni bayon yozishga o’rgatish metodikasi”

REJA

Kirish.

I bob. Boshlang’ich sinf ona tili darslarida nazorat ishi o’tkazish muammo sifatida.

- 1.1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining mantiqiy fikrlashini o’stirish orqali ijodiy nazorat ishlari samarasini oshirish yo’llari.
- 1.2. Boshlang’ich sinf ona tili darslarida bayon yozdirish jarayonida xotiraning ahamiyati.

II bob. Boshlang’ich sinf ona tili darslarida nazorat ishi o’tkazishning samarali shakl va metodlari.

- 2.1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini bayon yozishga o’rgatish yo’llari.
- 2.2. Ona tili darslarida lug’at ishi va uning bayon yozishdagi ahamiyati.
- 2.3. Nazorat ishlarida xatolarning turlari va ularni bartaraf etish yo’llari.

Tajriba- sinov ishlari

Xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

KIRISH.

“Biz oz iste’dodli, fidoiy bolalarimiz,
farzandlarimizga bilim va kasb cho’qqilarini
zabt etish uchun qanot berishimiz kerak”

I.A.Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Kelajagi buyuk davlatda yashaydigan xalqni har tomonlama komil insonlar bo’lishi talab etiladi. O’zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I. A. Karimov quyidagilarni qayd etadi: “Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo’lib yetishishga sharoit tug’dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo’jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarni tubdan o’zgartira olmaymiz. Yana bir narsani biz hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim: iste’dodli yoshlarga sharoit yaratish”¹.

Mamlakatimizda o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyatlar yuklangan. Chunonchi, bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’ulyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o’rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini yaxshi tasavvur qilamiz». Ushbu fikrlardan bugungi kun o’qituvchisiga nisbatan qo’yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yoshlarning ijodiy faoliyati dastlab oilada, bog’chada, keyinchalik boshlang’ich sinflarda bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta’limning poydevori qanchalik mustahkam bo’lsa, o’qituvchining dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi. Shundan kelib chiqib, jahon pedagogikasi erkin ijodiy fikrlovchi, mustaqil shaxsni shakllantirishning umumiy asoslarini keng miqyosda tadqiq qilgan va ko’plab natijalarni qo’lga kiritgan bo’lsada, jamiyat taraqqiyotida ta’lim-tarbiya jarayoni zamon talabiga mos holda mustaqil ravishda rivojlanib, takomillashib borishi hozirgi kunda o’z ifodasini topmoqda.

¹ Karimov I.A. “Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi”. – T. : Ma’naviyat. 2006 y. 52-bet

“Ilm-u tafakkur-kishini ezgulikka boshlaydigan beqiyos kuch. Ilm va tafakkur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan buyuk mo’jizadir”.² 1- Prezidentimiz I. A. Karimovning yuqorida keltirilgan fikrlari zamirida qanday ma’no-mazmun yotganligi hammamizga ma’lum. Shunday ekan, insonni yaralish tarixi davomida ilm va tafakkur tarzi kengayib, dunyo tizimidagi bilimlari boyib bormoqda. XXI asr fan, texnika taraqqiyoti asri deb bejiz atalmadi. Butun dunyo mamlakatlari qatori O’zbekiston ham ushbu asr nomiga mos ravishda ildam odimlab bormoqda. “Endilikda ilm-fan yangi yo’llar ochishi, sifat jihatidan yangi texnologiyalarni jadallik bilan yaratishi, jamiyatning yangi holatga o’tishini ta’minlashi lozim”³-deb ta’kidlaganlar 1-Prezidentimiz I. A. Karimov.

Mamlakatimiz barcha: ilm-fan, texnika, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy, siyosiy va shu kabi boshqa jabhalarda butun dunyo mamlakatlariga o’zining o’rnak bo’ladigan jihatlarini namoyon etmoqda.

Respublikamizda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga mas’ul bo’lgan jamiyat a’zolari birinchi galda o’z kasbining mohir ustasi bo’lgan o’qituvchi kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda. Jumladan, «Ta’lim to’g’risida»gi qonunda «Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega» deb ta’kidlangan. Chunki jamiyatimiz taraqqiyoti yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilgandir.

“Bugungi kunda nafaqat ta’lim, qolaversa boshqa sohalarga ham e’tibor juda katta berilmoqda. Misol qilib qishloq joylarda zamonaviy turar joy binolarining qurilishi, katta-katta sport majmualarining foydalanishga topshirilishi, kasalxonalarining yangitdan ta’mirdan chiqarilishi va turli xil diagnostik aparatlar

² Karimov I.A. “Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi”. – T.: Ma’naviyat. 2006 y. 52-bet.

³ Karimov I.A. “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. -T.: O’zbekiston. 2011 y. 78-bet.

bilan taminlanishi, bunday ishlarni har qadamda uchratish mumkin. Bu imkoniyatlarning barchasi bu muqaddas zaminda azizdir inson konsepsiyasi ostida amalga oshirilmoqda. Bunday imkoniyatlarning inson va uning hayotiy faoliyati xavfsizligi va barqarorligi uchun amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda hayotiy faoliyat xavfsizligi-bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning faol harakati ya'ni mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportda uning faoliyatini tashkil qiladi. Bunday masuliyat yana o'qituvchi va murabbiylar zimmasiga yuklanmoqda. Shunday ekan o'qituvchi- murabbiylar dars berish jarayonida ta'lim va tarbiyani, hayotiy faoliyati va uning xavfsizligi haqida ham uzviy ravishda bilimi bo'lmog'i zarurdir.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiydir.

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bog'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq”.

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada

o'shirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Bizning navqiron avlodimiz manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatimiz yaqinda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun asosida qat'iy davom ettiriladi.⁴

Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalash jarayonining muvaffaqiyati uchun zamin yaratuvchi omillar sirasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, mutaxassislik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirgan, shuningdek, pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarni tayyorlash alohida o'rin tutadi. Zero, yosh avlodni har jihatdan kamol toptirish, ularda muayyan kasbiy faoliyatni olib borish layoqatini shakllantirish hamda uning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar o'ziga xos rol o'ynaydi.

Shundan kelib chiqib maktab o'quvchilarida shakllanayotgan hamda takomillashib borayotgan kasbiy faoliyati qanday talablarga javob berishi kerak? Boshlang'ich sinf darslarida o'qituvchining mafkurasi qanday faoliyatlarni asosida shakllanmog'i lozim? degan savollar hamon o'z javobini kutmoqda. Chunki shaxsning mafkuraviy ongi, muayyan faoliyatlarni muvozanatida o'z yechimiga ega bo'lmog'i lozim. Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimida shakllanadigan yoshlarning ijodiy faoliyati faqat yangi bilimlarni o'rganish, ma'lumot olish bilan cheklanadigan bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati bir tomonlamaligicha qolib ketadi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

1. ⁴ Xalq so'zi gazetasi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2016-yil 7-dekabr

Kengroq ma'noda o'qituvchining ijodiy faoliyati - pedagogik jarayonda muntazam ravishda kelib chiqib turadigan muammolarni anglab yetish va hal etishga qaratilgan faoliyat sifatida ko'riladi. Bunday yondoshuv ijodni har bir o'qituvchi faoliyatining zaruriy tarkibiy qismi deb hisoblash imkonini beradi, albatta, bunda ijod har bir darsda, bolalar bilan ishlashning turli paytlarida, darsga tayyorgarlik jarayonlarida va hokazoda turlicha tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Pedagogning ijodiy faoliyati bolalar bilan muloqat qilishda berilgan pedagogik individuallik uchun pedagog tomonidan eng maqbul, uzviy va noan'anaviy pedagogik qarorlarni ishlab chiqish talab etiladigan, o'zgarib turadigan vaziyatlarda son-sanoqsiz o'quv-tarbiyaviy vazifalarni doimiy ravishda hal etib borishga qaratilgan faoliyat deb belgilanadi.

Pedagogik ijodkorlikning o'ziga xosligi shundaki, faqatgina pedagogik vazifani hal etish jarayonining o'zigina ijodiy xarakterga ega bo'lib qolmasdan, balki, bu qarorning ijodiy jarayon sifatida odamlar bilan muloqatda amalga oshirilishi ko'p jihatdan pedagogning individual-tipologik xususiyatlariga tayanadi. Pedagogik ijodkorlikning inson samarali faoliyatining hech bir boshqa xususiyati bilan tenglashtirib bo'lmaydigan xususiyati shundan iboratki, bunda o'qituvchi har doim jonli «inson materiali» bilan ijod qiladi. Shu sababli A.E.Shteynmetsning nuqtai nazari e'tiborga sazovor: «Pedagogik faoliyatning xususiyatlarini, uning bola, o'quvchi, ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishi va o'z-o'zini takomillashtirishi uchun sharoit yaratishdan iborat oliy, oxirgi maqsadi bilan aniqlash mumkin. Bu yerda ijodiy pedagogik faoliyatni boshqa samarali faoliyatlardan ajratish imkonini beradigan asosiy me'zon mavjud. Shunchalik insonparvar va yuksak bo'lgan pedagogik faoliyatning pirovard maqsadiga erishish faqatgina o'qituvchi va o'quvchilarning yoki bu fan mazmunini o'zlashtirishda hamkorlik va birgalikdagi ijodkorlik xarakteridagi faoliyatlarini tashkil etish orqaligina amalga oshirilishi mumkin». Bu esa pedagogik ijodkorlikning insonning ma'lum bir ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan ichki faoliyat mazmuni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan axloqiy jihatlarini birinchi qatorga olib chiqadi.

Ijodkor shaxs uchun eng kamida ikkita xususiyat xos: yaratuvchanlikka yo'nalganlik va faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos uslubi. Inson hayot faoliyatining turli jabhalarida amalga oshiriluvchi yaratuvchanlik faoliyati shaxsning atrof olam, jamiyat bilan chambarchas aloqalarini talab etadi va shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlarga egaligi, ehtiyojlarini o'z ichiga olgan maqsadga intiluvchanlik kabi barqaror sifatleri bilan bog'liq.

Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to'g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to'g'ri tanlasak, dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o'tadi. O'qituvchi izlanuvchan bo'lishi darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars qiziqarli o'tishi uchun faqat ko'rgazmali qurollardan foydalanib qolmay, o'yin elementlaridan, dars davomida foydalanish lozim.

Tilni o'rganish o'quvchilar zehni, aqli, ongi, madaniy darajasini oshiradi va tilni puxta o'rganmay turib, boshqa fanlarni o'zlashtirish qiyin. Chunki har bir predmetni ifodalash, bolaga o'rgatish hamisha so'zlar vositasida amalga oshadi.

O'yin orqali bola faoliyati mukammalashadi, ularni jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O'yin jarayonida, qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rgatib boradi. O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi, turli o'simlik va hayvonot o'zgarishlarni anglaydilar. O'yin - bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositalaridir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yinga aylantirib qo'ymaslik lozim. Bolaning haqiqiy ijodiy izlanuvchan, sofdil va adolatli mard va olijanob rahmdil, o'z Vatanning vatanparvar, mehnatsevar va yaratuvchi bo'lishi uning boshlang'ich ta'lim bosqichida egallagan bilimi va tarbiyasiga bog'liq. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim oldida turgan vazifa juda jiddiy ulkan ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim bolaning o'z hayotini jamiyat manfaati bilan bog'lab borishi, ichki munosabatlardan ijtimoiy munosabatlarga o'tishi, oldiga qo'yilgan hayotiy maqsadlari esa jamiyat maqsadlari bilan mushtarak bo'lishiga erishmogi kerak. Buning uchun boshlang'ich ta'lim pedagogik jamoasi bolalarga bilim berish

bilan birga murakkab tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishlari lozim. Boshlang'ich ta'lim mazmunida bolalarni mehnat, ijtimoiy va shaxsiy hayotga tayyorlashga zarur bo'lgan hamkorlik, samimiyat va o'zaro yordam natijasida yosh avlodni tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan. Boshlang'ich ta'lim shaxsning shakllanishida u o'sib voyaga yetadigan shart-sharoitlarida muhim rol o'ynaydi. Yosh avlodni ijodiy izlanuvchan, vatanparvar shaxs bo'lib shakllanishida boshlang'ich ta'lim mas'uliyati alohida ajralib turadi. Jamiyatimiz tuzumi ma'naviy-siyosiy birligini ijtimoiy tarbiyaning maqsadlariga to'la mos ekanligini belgilaydi. Bolalar faoliyatini oqilona tashkil eta bilgan o'qituvchi katta yutuqlarga erishishi mumkin. Buning uchun o'qituvchilar tarbiyaning mohiyatini vazifasini, avvalo o'zlari yaxshi tushungan holda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olishni bilishlari zarur.

Ta'lim sohasida 2016-yilda amalga oshirilgan ishlar o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O'tgan yili hammasi bo'lib 540 dan ziyod ob'yekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb –hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan taminlashga ajratildi.

2011-2016 –yillarda oily ta'lim muassasalarining moddiy texnik ba'zasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oily ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi.

2015-yilda bir qator yangi institut va fakultetlar, o'quv-ilmiy markazlar ochildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti va hududlaridagi tibbiyot oily o'quv yurtlari negzida Andijon, Buxoro, Samarqand va Nukus shaharlarida filiallariga ega bo'lgan Toshkent davlat stomatologiya

institute tashkil etildi. Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti ochildi, shuningdek, ushbu institut qoshida Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharq ko'lyozmalari markazi tashkil qilindi.

Janubiy koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida Inxat universiteti tashkil etildi. Mazkur oliy o'quv yurtida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish, axborot tizimlari va kompyuter tarmoqlarini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutahassislar tayyorlandi. O'tgan yili oily ta'lim muassasalariga qabul qilishning takomillashtirilgan tizimi joriy etildi, ya'ni test sinovlariga informatika bo'yicha savollar kiritildi, mutahassislikka oid fanlar bo'yicha baholash ballari oshirildi. Bu esa oily o'quv yurtlariga tanlagan kasbini hisobga olgan holda, eng yaxshi tayyorgarlik ko'rgan abiturentlarni saralab olish imkonini beradi.⁵

Har bir ish ta'limga borib taqalganidan keyin, shuni aytish joizki, maktab o'quvchisining ma'naviy qiyofasini tarkib toptirish paytida uning shaxsiy tajribasini ijtimoiy axloq norma va qoidalarini o'zlashtirib olish uchun qulay zamin yaratadi. Shaxsiy tajriba va ijtimoiy talablardan biriga ta'sir ko'rsatib turgan vaqtda o'quvchi shaxsni harakatga keltiruvchi motivlarga aylanib qo'lgan e'tiqod va ideallar sistemasini yuzaga keladi. Ana shu asosda shaxsning ahloqiy barqarorligi, ya'ni odamning o'zi o'zlashtirgan printsiplariga va ularga mos keladigan xatt-harakatiga har qanday sharoitda ham sodiq bo'lib qolish qobiliyati paydo bo'ladi. To'la savodxonlikka erishishning muhim omillaridan biri, o'quvchilar nutq madaniyati ustida ishlash, ularni og'zaki va yozma nutqlaridagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va tuzatishdan iboratdir. Shuning uchun 1-4-sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida bir turdagi yozma ishlar bilan chegaralanib qolmay, balki yozma ishning barcha turlari ustida mashg'ulot olib borish, o'quvchilarda fikrni keng ko'lamda va xilma-xil ravishda bayon eta bilish qobiliyatini o'stirish lozim.

⁵ "Turkiston" gazetasi 2016-yil 15-yanvardagi soni

Biz yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bitruv malakaviy ishimizning mavzusini “Boshlang’ich sinf o’quvchilarni bayon yozishga o’rgatish metodikasi” deb nomladik. Boshlang’ich sinf ona tili nazorat darslarini qay tarzda o’tkazilayotganini, o’quvchilar ona tili darslarini qay darajada o’zlashtira olishlarini, ko’rsatkichlar DTS talablariga mosligini aniqlashda quydagilarni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi.

- 1- Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov asarlari.
- Davlat ta’lim standarti.
- K.D.Ushinskiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Davoniy, A. Navoiy, Muhammad Bobur, Farog’iy, Boborahim Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlar.
- Psixologlar N.F.Kapterov, I.A.Sikorskiy, A.F. Lazurskiy, G.I.Rossolino, D.Lokk, Dekart, S. Xoll, Gekkel, P. Jane, U.Djems.
- M.Umarova, M. Nabiyeva “Bayonlar to’plami” T. “O’qituvchi” 2012.
- Q. Abdullayeva , S. Rahmonbekova, G. Bekmurodova, G. G’ozixo’jayeva “Diktantlar to’plami” Toshkent. “O’qituvchi” 2002-y.
- S. Fuzailov , M. Xudoyberganova, Sh. Yo’ldosheva “Ona tili” darslik.
- Tal’at G’afforova “ Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”.

Tadqiqotning maqsadi:

- DTS talablarini o’rganib chiqish;
- Nazorat ishlari jadvalini o’rganib chiqish;
- Nazorat ishlarini amalda sinab ko’rish;
- O’zlashtirilishi qiyin bo’lgan mavzularni tahlil qilish;
- Qo’shimcha mashg’ulotlar, o’tkaziladigan ishlar rejasini tuzish;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bayon yozishga tayyorlash orqali o'quvchilarning xotirasini shakllantirishga qaratilgan usullarni aniqlash.

Tadqiqotning vazifasi:

- O'quvchilar yoshiga DTS talablarining mos kelishini aniqlash;
- Nazorat ishlarini amalda o'tkazish;
- O'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzularni ko'rgazmalar materiallar orqali yana bir bor chuqur o'tish;
- Bayon yozish uchun o'quvchining xotirasini mustahkamlash mashqlarini o'tkazish.

Tadqiqot usullari

- - pedagogik kuzatish;
- - suhbat;
- - pedagogik tajriba;
- - lug'at ustida ishlash;
- - aniq va ravon o'qish (diksiya)
- - fikrni og'zaki va yozma tarzda bayon etish.
- -grammatik savodxonlikni kuzatish

Tadqiqotning obyekti:

- Boshlang'ich sinf ona tili nazorat ishi o'tkazish jarayoni.
- Oldimizga qo'ygan muammoni o'rganish uchun tadqiqotni o'tkazish obyekti qilib, Namangan viloyati Namangan shahridagi 13-maktabning 4-A va 4-B sinf o'quvchilarini tadqiqot o'tkazish obyekti qilib oldik. Ushbu obyektida boshlang'ich sinf ona tili nazorat darslarini va tekshirish tartiblarini o'rgandik.

Tadqiqotning predmeti:

- Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'qituvchi faoliyati

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:

- Bitiruv malakaviy ishidan pedagogik yo'nalishdagi kollej o'qituvchi va talabalari, umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari,

ushbu mavzu yuzasidan tadqiqot olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: kirish, ikki asosiy bob, yeti band, tajriba-sinov ishlari, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, **19961** ta so'zdan iborat.

Tadqiqot bosqichlari:

1. 2016-yil sentabr-dekabr.
2. 2017-yil yanvar-mart.
3. 2017-yil aprel-may oylar.

I bob. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nazorat ishi o'tkazish muammo ekanligi.

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini o'stirish orqali ijodiy nazorat ishlari samarasini oshirish yo'llari.

Ona tili - nutq o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarning vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi, demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida ro'l o'ynaydi.⁶

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi hislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy fazilatlarini bilan bogliq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.
3. Adabiy til normalarini, ya'ni imloviy va punktuatsion savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.
4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan anglash tushunchalarini shakllantirish.
5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasini bilam tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va boshlang'ich sinflar ona tili dasturida aks etadi. Mantiqiy fikrlash esa, unga hamohang rivojlanib boradi.

⁶X.G'ulomova, Sh. Yuldosheva "Ona tili o'qitish metodikasi" ma'ruza matni

Mantiqiy fikrlashning pedagogik tomonlarini o'rganish o'quvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning tashkil qilish shakllari, metodlari, vositalari, omillari va shart-sharoitlarini ishlab chiqish va tajribalar asosida ularning samaradorligini baholashdan iborat bo'ladi. Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlashadiki, maktabdagi ta'limning eng asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda mantiqiy amallarni bajarish bo'yicha yetarli darajadagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni turli mantiqiy fikrlash usullariga o'rgatish, mantiqiy bilimlar bilan qurollantirish, olgan bilimlarini o'quv va amaliy faoliyatlarda maqsadli qo'llashga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan mantiqiy bilim va usullarni o'zlashtirish masalasi V.S. Ablova, Y.L. va T.K. Kamolova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan⁷. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishning to'g'ri tashkil qilinishi natijasida bolalar mantiqiy fikrlash bo'yicha ko'nikma va malakalarini (hususan, sinflarga ajratish, umumlashtirish, o'z xulosalarini yetarli argumentlar bilan asoslash va h.k.) juda ham tez egallaydilar.

Shu bilan birga pedagogika nazariyasida bunday ta'lim jarayonini qanday qurish masalasida yagona qarashlar mavjud emas. Bir qator olimlar (V.G. Beylinson, N.N. Pospelov, M.N. Skatkin) mantiqiy usullar fan mazmuniga yashiringan va o'quvchilar fan bo'yicha ta'lim olish jarayonida, berilgan obrazlar asosida to'g'ridan-to'g'ri mantiqiy fikrlashga o'rganadilar deb hisoblashadi.

Bu savolga boshqacha yondoshuvda (Yu.I. Vering, N.I. Lifintseva, V.S. Nurgaliyev, V.F. Palamarchuk) o'quv fanlarini o'rganish orqali mantiqiy fikrlashga o'rganishning samaradorligi kam bo'ladi, bunday usul mantiqiy fikrlashning hamma usullarini o'rganish uchun yetarli emas, shuning uchun mantiq ilmiga bag'ishlangan alohida o'quv fanlarini joriy qilish kerak deb hisoblashadi.

Yana bir guruh pedagoglar (D.D. Zuyev, V.V. Krayevskiy) o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini konkret o'quv fani mazmuniga kirgan mantiqiy amallarni tushuntirish orqali rivojlantirish mumkin degan g'oyani ilgari suradilar.

⁷ Ivanova Y.V. Razvitiye logicheskogo mishleniya na urokax. Nachalnaya shkola plyus do i posle.-2006.-№ 6.-str.59-60

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga yondoshuvlar turlicha bo'lishga qaramay, tadqiqotchilarning asosiy qismi ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi degan umumiy qarashlar mavjud:

o'quvchilarda qaralayotgan predmetlarni qiyoslashga, ulardagi o'xshashliklar va farq qiluvchi hususiyatlarini aniqlashga o'rgatish;

predmetlarning eng muhim va ikkinchi darajali hususiyatlarini ajratib olishga o'rgatish,

o'quvchilarga predmetlarni tarkibiy qismlarga (analiz) bilish maqsadida ajratish, alohida tashkil etuvchi qismlarni yaxlit predmet sifatida birlashtirish (sintez) hamda bu jarayonda qismlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga o'rgatish;

o'quvchilarga kuzatish va mavjud faktlar asosida to'g'ri xulosa chiqarish, bu xulosalarni tekshirish, ishonarli tarzda isbotlash, yolg'on mulohazalarni inkor qilishga o'rgatish;

o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini ma'lum bir tartib va ketma-ketlikda, asoslangan holda, bir-birini inkor qilmaydigan mulohazalar yordamida bayon qilishlarini nazorat qilish.

Shunday qilib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Dastlabki mantiqiy fikrlash elementlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum bir shart-sharoitlar yaratilgan shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Bu jarayon umumiy ta'limning muhim komponentalaridan biri sifatida maqsadga yo'naltirilgan holda, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida uzluksiz va muttasil olib borish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun avvalo bolalarning yoshlariga hos bo'lgan ruhiy hususiyatlariga suyanish lozim.

Kichik yoshdagi bolalarda ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanish qonuniyatlarini to'la e'tiborga olmaslik bilan bog'liq. Ko'plab olimlar bolalarning

ta`lim olishga bo'lgan qiziqishlarining susayishi, mashg'ulotlarda ishtirok etishdan bosh tortish holatlarini mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'lashadi. Bu muammoni ta`lim jarayonida bolalarning yoshlariga hos bo'lgan individual-psixologik va intellektual hususiyatlarini hisobga olmasdan hal qilishning iloji yo'q.

Kichik maktab yoshi mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishi bolalarga yaxshi tanish bo'lgan tevarak atrofdagi predmet va xodisalarning asosiy hossalari yordamida tashkil qilinadigan maqsadga yo'naltirilgan ta`lim jarayoni ta`sirida yaxshi samara berishi bilan xarakterlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga hosligi – bilishga qaratilgan faollikdir. Maktabga ilk marta kelgan kichik yoshdagi bolalar ilmiy bilishning asosi hisoblangan elementar umumiy bog'lanish, aloqa, munosabatlar va qonuniyatlarni tushunishadi.

Shuning uchun boshlang'ich maktabning bolalarga ta`lim berishdagi asosiy vazifalaridan biri – bu bolalarda borliq olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirish va iloji boricha to'ldirishdan iborat. Bu jarayonda bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich maktabga endigina bilim olish uchun kelgan boladagi qiziqishlar natijasida bilim olishga intilish kuchayadi, tajribalar o'tkazishga ishtiyoq hissi rivojlanadi. Turli o'yinlar davomida namoyon bo'ladigan boladagi mustaqillik asta-sekin tashabbuskorlikka, mulohazalar yuritishda erkinlikka aylanadi. Maktabgacha ta`lim maskanlarida ko'rsatilgan namunalarga taqlid, qoida va ko'rsatmalarga itoat qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ruhiy jarayonlarning ixtiyoriyligi, hulqi va bilim olishga intilishida tashabbuskorlik hislari rivojlanadi.

Bola o'yin vaqtida turli bir xil buyumlar o'rniga boshqalaridan foydalanishga o'rganadi. Buning oqibatida ularda tasvirlarni tushunish, asta-sekin tasavvur, ko'rgan narsalarini qandaydir vositalar yordamida tasvirlash hissi shakllanadi va rivojlanadi. Bu holat asta-sekinlik bilan bolalarda alomatli-belgili faoliyat ko'rsatishga (chizma, sxema, grafik, jadval va modellarni tahlil qilish, tushunish, o'qish, ishlash) aylanadi.

Ta'lim jarayonida turli tipdagi modellardan muttasil va o'rinli foydalanish bolalarda mantiqiy-obrazli fikrlash hissini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birdaniga predmet va xodisalarning ta'siriga e'tibor qaratishga moyil bo'ladilar. Ularning aqliy faolligi takrorlash va qo'llashga yo'naltiriladi. Bu yoshdagi bolalar predmet va xodisalarning mohiyatlariga unchalik ko'p qaratilmaydi. Ular odatda predmet va xodisalarning bir ko'rishda his qilishi mumkin bo'lgan hususiyatlari haqidagi taassurotlarini bildiradilar. Muammolarning murakkab tomonlariga kamdan-kam hollardagina e'tibor berishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ravishda xodisa va predmetlarning sabab va oqibatlarni o'rganishga qiziqish bo'lmaydi, ular faqat u yoki bu amalni qanday bajarish haqida savol berishlari mumkin, muhim va muhim bo'lmagan hususiyatlarni ajratishga e'tibor berishmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi analiz, sintez, qiyoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy amallarni bajarishni o'rganar ekan, tadqiqotchilar quyidagi hulosaga kelishdi: kichik yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining asosiy hususiyati quyidagilardan iborat: his qilishning ustunligi; abstrakt narsalar ustida faolyait ko'rsatish; sintezni predmetlar bilan aloqani uzmaganda holda ko'rgazmali holatda amalga oshirish; predmetlar ustida qiyoslash amalini hususiyatlarini osongina his qilish mumkin bo'lgan usulda qayta joylashtirish; predmetlarning muhim alomatlarini ajratishga qodir emaslik. Ammo bu holatlarning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy amallarni bajarishga qodir emaslar degani emas. P.Y. Galperin, L.F. Obuxova, Dj. Bruner va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida bolalarning mantiqiy fikrlash imkoniyatlari ular ko'rsatayotgan mantiqiy faoliyatga qaraganda kengroq ekanligini ko'rsatib berishgan. Ular ayrim hollarda o'quv materiallarida keltirilgandan murakkabroq mantiqiy bilimlarni ham o'zlashtirishga qodir bo'ladilar⁸.

Shuning uchun biz hisoblaymizki, boshlang'ich maktabda rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim bo'lgan va yuqorida keltirilgan mantiqiy amallar safiga

⁸ Tixomirova L.F. Basov A.V. Razvitiye logicheskogo mishleniye detey. –Yaroslavl: TOO Akademiya razvitiya, 1996. – 240-str.

quyidagi amallarni ham qo'shish mumkin: tushunchalarni aniqlash, mulohazalarni shakllantirish, mantiqiy ajratish, o'xshatish, xulosalar chiqarish, isbotlash.

Bu amallarni boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan bajarishning o'ziga hos tomonlarini o'rganish ko'rsatdiki, bu bosqich bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun faol davr hisoblanadi. Ularda fikrlash jarayonlari jadallik bilan o'sadi, boshlang'ich maktablarda shakllangan ko'rgazmali-obrazli fikrlashdan so'zli-mantiqiy fikrlashga o'tish jarayoni yakunlanadi, ilk mulohazalar shakllanadi, faol ravishda turli mantiqiy amallar yordamida xulosa chiqarishga urinishadi.

Shu bilan birga maktab amaliyoti ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarning ko'plab o'qituvchilari bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli e'tibor berishmaydi va barcha fikrlash ko'nikmalari o'z-o'zidan vaqti kelib shakllanadi va rivojlanib ulguradi. Bu holatning mavjudligi boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi mantiqiy fikrlashning pasayishiga olib keladi, buning oqibatida esa ulardagi intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi sekinlashadi. Bu holat bolalarning kelajakdagi individual rivojlanish dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rstadi.

Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirish, bolalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini orttirish, zamonaviy maktab ta'limini mukammallashtirish uchun obyektiv pedagogik shart-sharoitlarni izlashga to'g'ri keladi. Bunda bolalarga ajratilgan o'quv soatlarini ko'paytirish nazarda tutilmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashda biz quyidagi holatlardan kelib chiqamiz:

- ta'lim va rivojlanish o'zaro chambarchas bog'langan jarayon bo'lib, rivojlanish sohasidagi yutuqlar bilimlar puxta va chuqur egallash sharti hisoblanadi. (D.B. Elkonin, V.V. Davidov, L.V. Zankova va b.)
- muvaffaqiyatli ta'lim berishning eng muhim sharti bolalarda mantiqiy amallarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni maqsadga yo'naltirilgan va muttasill shakllantirish hisoblanadi. (S.D. Zabramnaya, I.A. Podgoretskaya va b.);

- mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ta`lim jarayonidan ajralgan holda rivojlantirish mumkin emas. Uni fanlar sohasidagi ko`nikma va malakalarni rivojlantirish, ta`lim jarayonida bolalarning yoshlariga hos individual va psixologik hususiyatlarini e`tiborga olish orqali tashkil qilish lozim. (L.S. Vo`gotskiy, I.I. Kulibaba, N.V. Shevchenko va b.).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, biz boshlang`ich sinf o`quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlarini taklif qilamiz:

- boshlang`ich sinf o`qituvchilarida bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turg`un yo`nalishning mavjudligi;
- o`quvchilarni mantiqiy bilim olishga bo`lgan doimiy qiziqishlarini shakllantirish va ta`minlash;
- mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda shaxsning individual va psixologik hususiyatlarini e`tiborga olish;
- mashg`ulotlar mazmuni va shakllarini o`zgaruvchan bo`lishini ta`minlash.

Ushbu shartlar kompleksi uchun boshlang`ich sinf o`qituvchilarida bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maqsadning mavjudligi bazaviy shart hisoblanadi. Ta`lim jarayonida bolalarga shunchaki bilimlarni bermasdan, ularda o`zaro bog`langan bilimlar tizimini shakllantirish talab qilinadi.

Tartiblangan bilimlar tizimini shakllantirish bilimlarni chuqur va puxta egallashga imkon yaratadi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim poydevor bo`lib xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim shart – bu bolalarning ta`lim jarayonida mantiqiy amallarni o`rganishga qiziqishlarini ta`minlash hisoblanadi. O`qituvchi o`quvchilarni u yoki bu mantiqiy amalni bajarishni o`rganishlari zarurligiga nafaqat ishontirishi, balki umumlashtirish, analiz, sintez va boshqa mantiqiy amallarni bajarishga rag`batlantirishi, ishtiyoqlarini kuchaytirishi lozim. Biz kichik yoshdagi bolalarning mantiqiy amallarni bajarish sohasidagi har qanday faoliyatlarini,

hattoki hech qanday natija bermaydigan muvaffaqiyatsiz urinishlarini ham o'qituvchi tomonidan yuqori baholanishi lozim deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning navbatdagi sharti mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda shaxsning individual va psixologik hususiyatlariga suyanishdan iborat bo'ladi. Bolaning faol va ongli yondoshuvchi mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quv materialining strukturasi o'quvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil va asoslangan ravishda bilimlarni umumlashtirgan holda o'zlashtirishlariga mo'ljallanishi lozim. Chunki, obyektiv haqiqat agar u shaxsiy tajribalar natijasida o'zlashtirilgan bo'lsa, subyektiv ahamiyat kasb etishni boshlaydi. Aks holda olingan bilimlar rasmiy xarakter kasb etadi. Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv har bir o'quvchini mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa maktablarda ta'limning navbatdagi bosqichlarida bolalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat garovi bo'ladi.

Shuningdek, bolalarning yoshlariga, individual hususiyatlariga, bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlariga mos hamda o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lgan topshiriqlar tizimi ham mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Bu shart maktabdagi barcha fanlarni o'qitishda o'quv materiallarining mazmuni va mashg'ulotlar strukturasi o'zgartirish, qo'llash mumkin bo'lgan metodlarda mantiqiy topshiriqlardan bosqichma-bosqich kiritish va keng foydalanishni nazarda tutadi. Bu xolat kichik yoshdagi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shu jumladan ona tili orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalari muntazam taraqqiy ettirib boriladi, oqibatda, o'quvchilar o'z fikrlash faoliyatlarini takomillashtirib, eng muhim mantiqiy amallarni bajaradigan bo'ladilar.

O'quvchilar so'z, so'z shakllarilari, gap va uning qurilishi, gap bo'laklari haqida ma'lumot olish bilan birga, predmet, hodisalar bilan ularning belgi holatlari

orasidagi munosabatni ham tahlil etadilar; tur va jins tushunchalarini ajratadilar; borliqdagi narsa hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini anglaydilar; ularning xususiy va umumiy belgilarini tahlil qiladilar va ma'lum bir xulosa chiqaradilar.

Grammatik qoida va tushunchalarni o'zlashtirishda o'quvchining shaxsiy kuzatishi, qiyoslay bilishi va muayyan xulosaga kela olishi muhim ahamiyatga ega. Bu ishlar, albatta, o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish ona tili o'qitishning hamma bosqichida, har bir darsda nazarda tutiladi:

- a) ta'rif va qoidalar, odatda, grammatik asos va hodisalarning eng muhim belgilari haqidagi xulosa asosida yuzaga keladi;
- b) til xodisalarini kuzata borib, o'quvchilar grammatik shakllarni bir biridan farqlaydilar, ularni o'ziga hos belgilari asosida tahlil qiladilar;
- v) mashqlarni bajarish davomida o'quvchilar so'z va gaplarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritadilar.

Ona tili darslarida, asosan, quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. O'qituvchining bayoni.
2. Suhbat.
3. Til faktlarini kuzatish.
4. Til faktlarini analiz qilish.
5. Grammatik tahlil.
6. Mashq.
7. Darslik ustida ishlash.
8. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish.
9. Ekskursiya.

Ko'rgazmalilik - faol o'qitish metodlaridan biri. Fan va texnika taraqqiyoti ona tili o'qitish metodikasini boyitishga ham, ona tili o'quv xonalarining jihozlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi. Hozirgi vaqtda diafilm, diapozitiv, epi-diaskop, filmskop, magnitofon, radio, kino, hamda televideniye, elektr tochkali doskalar va boshqa texnika vositalari ona tili o'qituvchilarining juda yaqin yordamchisi bo'lib qoldi. Diapozitiv va diafilmlardan mavzuga doir lug'at tuzish,

og'zaki hikoya tuzish, ayrim rasmlar bo'yicha suhbat va grammatik mashqlar o'tkazish, yozma bayon va insho kabi ishlarda foydalanish mumkin. Bular o'quvchilar nutqini va mantiqiy tafakkurini, mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish uchun xizmat qiladi. Diapozitiv va diafilmlar darsda kuzatilgan asosiy maqsad (bu mavzu bo'yicha o'quvchilarga bilim va malaka berish yoki ularni mustahkamlash)ni amalga oshirishda qo'shimcha vositaginadir. Shunga ko'ra, darsda diafilm namoyish qilish 5 daqiqadan ortiq vaqt olmasligi kerak. «Temuriylar sulolasi» diafilmi ko'rsatiladi. Ayrim kadrlar namoyish qilinganda, magnitofonga yozib olingan izohiy ma'lumot (komentariy) ham eshittirilib turishi mumkin. Bu vaqtda o'quvchilarning ham eshitish, ham ko'rish faoliyati rivojlanadi. Diafilmdan so'ng o'quvchilarga ba'zi savollar beriladi. Masalan: *Amir Temur kim? Temiriy avlodlarining oilasi a'zolarini sanang. Ulug'bek kimning farzandi edi?*

So'ng o'quvchilar bayon yozadilar.

4 – sinfda aniqlovchi va to'ldiruvchilarni qaytarish mashqi (bayon) uchun «Paxta haqida hikoya» diafilmdan foydalanish mumkin. Syujetli filmlar olinsa, faqat ayrim kadrlar ko'rsatiladi.

Bayon syujetli film asosida o'tkazilsa (masalan, «Mustaqillik yutuqlari», «Oltovlon va yettinchi», «Alovuddin va sehrli chiroq.», «Ona bitta, Vatan yagona» kabi) film ko'rsatilgach, o'quvchilar qayta hikoya qiladilar, reja tuzadilar.

Filmlar, ayniqsa, o'quvchilarning nutq faoliyatini faollashtirishda juda qulay vosita hisoblanadi. Darslarda ona tili o'qituvchilari qisqa metrajli (ekranlashtirilgan adabiy asar) badiiy filmlarni, ilmiy-ommabop filmlarni, ocherk-filmlar, ertaklar asosidagi filmlarni namoyish qilish orqali o'quvchilarning bilim va malakalarini o'stirish uchun katta imkoniyatlar yaratadilar.

Ona tili darslarida bog'lanishli nutqqa doir yozma ishlar diafilmlar asosida o'tkazilsa, eng avvalo manzara asosida o'quvchilar ijodiy misol o'ylab topadilar. So'ngra birbiriga bog'liq gaplar topishga o'tadilar. Masalan: *Bahor fasli boshlandi. Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi qorlar eriydi. Tabiat ko'rkamlashadi. Qushlar uchib kela boshlaydilar.*

Yuqoridagi kabi bir-biriga bog'liq gaplar topish o'quvchilar tomonidan «Bahorning boshlanishi» degan mavzuda yoziladigan ijodiy insholarga zamin hozirlaydi. O'quvchilarning fikrlash va nutq malakalarini o'stirish uchun teleeshittirish va telefilmlar ayniqsa ko'p material beradi. Teleeshittirishlar ona tili va rus tili, ona tili va chet tillari, til va adabiyot fanlari orasidagi aloqani yanada yaxshiroq ochishga imkon beradi.

Radio va magnitofon eshittirish o'quvchilar nutqini takomillashtirishda eng yaxshi vositadir. Ifodali nutq na'munalarini magnitofon orqali bir necha bor eshittirish mumkin. Bu o'quvchilarning eshitish va qayta eslash malakasini yaxshilaydi.

Magnitofondan o'tilganlarni takrorlash yoki turli yozma ishlar o'tkazishda ham foydalanish mumkin. Masalan: *shaxs oti yasovchi qo'shimchalar bo'yicha lug'at diktant o'tkazishda o'qituvchi, temirchi, sinfdosh, paxtakor, bog'bon, oshpaz, mehnatkash, chorvador, tabiatshunos* so'zlari texnika vositasida diktoverka qilinadi, uni o'quvchilar yozadilar. O'z diktant o'quvchilarning yodda saqlash qobiliyatlariga bog'liq bo'lganligi uchun, uni o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri magnitofon yordamida o'tkazishi mumkin. 4-sinfda uyushiq bo'lak, umumlashtiruvchi so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishini qaytarish mashqini quyidagicha o'tkazish mumkin: magnitofon lentasiga yozib olingan gaplarning har biri uch martadan qaytariladi; shu vaqtda gaplar orasida qanday tinish belgilari ishlatish mumkinligi o'quvchilardan so'rab boriladi: "Do'stlik" oromgohida o'zbeklar, tojiklar, ruslar, ukrainlar, yahudiylar, qozoqlar - turli millat farzandlari dam oladilar.

1.2. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida bayon yozdirish

jarayonida xotiraning ahamiyati.

O'tgan ajdodlarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishda, ma'lum kontsepsiya asosida o'rganmagan bo'lsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur holatlarnng aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Bular to'rt xil manbalarda uchraydi. Ularning biri — xalq ijodiyoti: rivoyatlar, maqollar,

matallar va masallar; ikkinchisi — maxsus ijodkor kishilar (hatto, hukmdorlar) muayyan shaxsga bag'ishlab yozgan o'g'it-nasihat va hikoyalar; uchinchi — qomusiy, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlari; to'rtinchi — turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, ya'ni badiiy asarlardir.

Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi haqidagi axloqiy-falsafiy mushohadalari «Ideal shahar aholisining fikrlari», «Masalalar mohiyati», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Sharxlardan», «hikmat ma'nolari», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi qator asarlarida bayon etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'zining «O'tmish yodgorliklari» kitobida inson hayotiga doir xilma-xil ma'lumotlarni keltiradi. Shu jumladan, olim kishilarning jismoniy tuzilishi, umrlarining uzun-qisqaligi to'g'risida bildirgan muloxazalar diqqatga sazovordir. Beruniy odam uzoq vaqt yashashining sababini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. Bu jihatdan uning «Hindiston», «Mineralogiya» asarlari, Ibn Sino bilan yozishmalari alohida ahamiyatga ega.

Ibn Sinoning 5 tomlik «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yo'llari, fiziologik jarayonlar bilan borliq psixik jarayonlar haqida ancha muhim ma'lumotlar bor. Uning «Odob haqida» risolasi ham inson shaxsini shakllantirish to'g'risidagi jiddiy asardir.

Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talabalariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda o'z printsiplarini bayon etadi. A. Jomiyning «Bahoriston», «Xiradnomai Iskandariy», «Tuhfatul ahror», «Silsilatuz zahob» va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar, o'rganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlar ifodalangan.

Davoniy o'zining «Ahloqi Jaloliy» nomli asarida insoniy fazilatlarini to'rtta bo'ladi va bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir. Shoir, ayniqsa donolik fazilatini chuqur tahlil qiladi. Uningcha, inson o'zining aqliy qobiliyati va aqliy iste'dodini

tarbiyalash uchun zukko, zehnli, fahm-farosatli bo'lishi va bilimlarni tez egallashi lozim.

A. Navoiyning «Xazoyinul maoniy», «Mahbubul qulub» va boshqa asarlarida yetuk, barkamol insonning ahloqi, ma`naviyati, odamlarga munosabati, iste`dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta`kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, insonlarning kamtarligi masalalari alohida o'rin egallaydi. Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, irodaviy sifatlar, qat`iyalilik, shijoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan.

Yuqoridagilardan tashqari, Muhammad Bobur, Farog'iy, Majlisiy, Boborahim Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy Abdulla Avloniy va boshqalarning yoshlar tarbiyasiga, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot masalalariga, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ham turli janrlardagi asarlarda ravon va ixcham bayon qilib berilgan.

XVII asrdan boshlab to bizning zamonamizgacha ikki lager - falsafa va psixologiya lageri o'rtasida taraqqiyot nazariyasi yuzasidan qattiq kurash boradi:

Birinchi lager psixik o'sishni butunlay «tug'ma ideyalar»belgilaydi deydi.

Ikkinchi lager psixik o'sishni butunlay muhitga va turmush tajribasiga bog'liq deydi.

«Tug'ma ideyalar» degan nazariyaning namoyondasi Dekart (1596-1650) edi. Uning fikricha, tug'ma ideya intellektda boshlang'ich xolatda bo'ladi. Bu ideyalar moyillik sifatida «tug'ma» bo'lib, faqat keyinchalik to'la anglanguncha asta-sekin taraqqiy etadi.

Italyan antropologi va kriminalisti **Lombrzo** (1836-1909) burjuaziyani oqlab, qoshshoq xalqda jinoyat qilishga moyillik bor, yani jinoyatchi ota-onadan jinoyatchi bolalar tug'iladi deb da'vo qiladi. Bu ideologlar mustamlakachilik, bosqinchilikni oqlab mazlum xalqlar, ayniqsa qora tanli xalqlarni xudoning o'zi oq tanli kishilarga

tobe' qilib yaratgan deb da'vo qiladilar. Nems - fashistlarning irqchilik nazariyasi AQSHda ham ildiz otdi.

Psixologiya lagerining namoyondasi **D.Lokk** edi (1632-1704). U «Tarbiya haqidagi fikrlar» degan kitobida yangi tug'ilgan bolani toza taxtaga o'xshatadi. Psixika hayot tajribasiga bog'liqdir, hamma narsa tashqi muhitga qaramdir. Lokkning fikricha bolaning psixik o'sishi butunlay hayot sharoitiga, muhitga va tarbiya sharoitiga bog'liqdir. Tajribaga katta ahamiyat beradigan bu nazariya bir tomonlama bo'lib, irsiyatning rolini, qobiliyatlarning o'sishiga asos bo'ladigan biologik faktorlarning rolini mutloqo inkor qiladi.

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq qator og'zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo'la boshladi. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XVII-XVIII asrlarda diniy-ahloqiy negizda yozilgan edi. XVIII asrdan boshlab bolalar psixologiyasi bo'yicha muayyan tartibga, yo'nalishga va uslubga ega bo'lgan ilmiy fikrlar vujudga keladi. Rus tarixchisi V. N. Tatishchev (1686-1750) ning «Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'g'risida suhbat» kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarni egallash zarurligi, tilning xosiyati, yozuvning ahamiyati, yosh davrlarining xususiyati nuqtai nazardan bayon qilingan. N. I. Novikov (1744-1818) bashariyat farovonligini ko'zlab yoshlar bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng yoyish uchun ularni o'ziga xos yo'sinda tarbiyalash kerakligi g'oyasini ilgari suradi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, ahloq, xis-tuyg'u va taqlidchanlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Rossiyada ilmiy psixologiyaning rivojlanishiga K.D.Ushinskiy, N.F.Kapterov, I.A.Sikorskiy, A.F. Lazurskiy kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. N.F.Kapterovning «Pedagogik psixologiya», I.A.Sikorskiyning «Bola ruhi», A.P.Nechayevning «Hozirgi zamon eksperimental psixologiyasi va uning maktab talimiga munosabati», A.F. Lazurskiyning «Maktab o'quvchisining tavsifi» asarlari psixologiyaning rivojlanishiga xizmat qildi.

Rossiyada G.I.Rossolinoning «Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi» laboratoriyasi ishga tushdi. Ushbu asarlarda insonning ijtimoiy mavjudotligi tan

olinib, unga ilmiy materialistik nuqtai nazardan yondashilsada, insondagi psixologik, fiziologik va biologik jihatlar, tarkibiy qismlar tabaqalanmaydi, tashqi muxitni bosh omil deb tushuntiriladi.

Rus fiziologiyasining otasi I.M.Sechenov psixikaning reflektor xususiyatini kashf qilib, bilish jarayoni, inson xis-tuyg'usi, o'zini-o'zi anglashining fiziologik mexanizmini tushuntirishi fan olamida keskin o'zgarish yasadi. I.P.Pavlov kashf etgan qator qonuniyatlar, xossalar, ikkinchi signallar tizimi eksperimental ishlarni olib borishga puxta zamin hozirladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Evropa va AQSH da yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan qator asarlar paydo bo'ldi. Amerikalik psixolog U.Djems «O'qituvchilar bilan psixologiya to'g'risida suhbat» (1902) asarida yosh davrining xususiyatlari haqidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan malumotlarni chuqur tahlil qildi. K.Byuler xonim (1879-1963) o'zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatining har xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida fantaziya, tafakkur, nutq jarayonlarining rivojlanishini, aqliy faoliyat, hamda uning rivojlanish bosqichlari (instinkt, dressura, intellekt)ni, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini izchil o'rgandi.

Mazkur sohada tubdan farqlanuvchi g'oyalar, nazariyalar yuzaga keldi. Masalan, amerikalik psixolog S. Xoll (1844-1924) Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga bevosita ko'chiradi. Uning fikricha, «irsiyat» filogenezni ontogenezda takrorlaydi, xolos. Bolalar xulq - atvoridagi har-bir fakt insoniyat tarixi bilan bog'landi va tegishli taqqoslash izlab topildi:

- a) bolalar daraxtlarga tirmashib chiqar ekan demak yovvoyilik davrini takrorlaydi;
- b) bolalar tuproq o'ynab unga cho'p tiqar ekan, dehqonchilik davrini takrorlaydi;
- v) bolalar kamon va o'q yasar ekan, ov va urushlar davrini takrorlaydi;
- g) bolalar marka, etiketka yig'ar ekan savdo-sotiq davrini takrorlaydi.

Frantsuz psixologi P. Jane (1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug'ullanadi.

Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar sistemasining shakllanishi insonning o'sishini belgilaydi. U aloqa deb, xatti-xarakatini tushunadi. Bu esa kishining atrof muhitga shaxsi munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P. Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning printsiplari hisoblanadi. P. Jane o'z tadqiqotlarida psixikaning to'rt darajasi:

- a) motor reaksiyasini o'sishi;
- b) pertseptiv harakatning o'sishi;
- v) shaxsiy-ijtimoiy harakatning o'sishi (o'zining harakatini boshqa kishilarga moslashtirish);
- g) intellektual sodda xatti-harakatning o'sishi (nutq va tafakkurning rivojlanishi) mavjud ekanligini asoslagan.

Shveysariyalik psixolog J. Piaje (1896-1980) insonning kamol topishini bir necha davrlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi:

1. Bola – tashqi muhit – ma'lumotlarni qayta ishlash.
2. Tafakkur: a) ijtimoiy davrgacha;
b) ijtimoiy davr.
3. Intellekt: a) sensomotor – 2 yoshgacha;
b) operatsional davrgacha – 2-7 (8);
v) yaqqol operatsiya davri – 7 (8)-11 (12) yoshgacha;
g) rasman (formal) operatsiya davri-11 (12)-15 yoshgacha.

AQShlik psixolog Dj. Bruner (1915) shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida ikkiyoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtiradi.

Shu tariqa yosh psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanishiga O'rta Osiyo allomalari, rus va chet ellar psixologlari munosib hissalarini qo'shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar,

amaliy va ilmiy ma`lumotlar, tadqiqotchilar yaratgan metodikalar o`z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Xotira. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xotirasining eng muhim xususiyatlaridan biri — so`z mantiq xotirasi va ma`nosiga tushunib eslab qolish salmog`ining ortishidir. O`quvchi o`z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini faoliyatning maqsadiga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Yuqorida aytilganidek, birinchi signal sistemasi ikkinchi signal sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli o`quvchilarda mantiqiy xotiradan ko`ra ko`rsatmali-harakatli xotira muhimroq rol o`ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko`ra yaqqol ma`lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq, hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari ta`limiy materiallarning ichki bog`lanishlariga ahamiyat bermay, ma`nosiga tushunmay quruq eslab qoladilar. O`rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay, yoddan o`zlashtiradilar.

Buning sabablari:

- 1) *ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani ma`lumotlarni aynan o`zgarishsiz eslab qolish imkonini yaratadi;*
- 2) *o`quvchilar o`qituvchi qo`ygan vazifani anglab etmaydilar,*
- 3) *natijada uning «to`g`ri tushuntirib ber» degan talabini so`zma-so`z takrorlash deb biladilar;*
- 4) *ularning nutq boyligi yetishmasligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to`ldirish, unga qo`shimcha qilish imkoniyati yo`qligi uni so`zma-so`z qaytarishni osonlashtiradi;*
- 5) *o`quvchilar matnni to`g`ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar. Tadqiqotchi A. A. Smirnov eslab qolishning to`g`ri usuli sifatida matndagi ma`nodosh so`zlarni guruhlarga ajratish, tayanch nuqtani topish, so`zlab*

berish uchun reja tuzish va o'tilgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya qiladi.

Ta`lim jarayonida o'quv materiallarining ma`nosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Ularni A. A. Smirnov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollantirish o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Aqliy mehnatda mustaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o'stirish mumkin emas. Shuning uchun bolalarga izohli o'qish, masalaning shartini sharhlash, muammoli vaziyatni yaratish va hal qilishni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushirishning mahsuldorligi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq. Aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishini tashkil qilish va boshqarish usullarini egallashiga uzviy aloqadordir.

Mnemik (xotira) usullariga ta`rif yoki qoidani so'zma-so'z eslab qolish, o'z so'zi bilan aytib bersa bo'ladigan materialning mohiyatini eslab qolish, birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish, raqamlarni bir joyga to'plash, eng zarur tushunchalarga alohida e`tibor berish kiradi. Eslab qolish, esda saqlash, esga tushirishning samaradorligi maqsadni anglash va unga intilish negizida vujudga keladi. Xotiraning samaradorligi o'qish motivlariga bevosita bog'liqdir. Rus psixologi T. N. Balarich o'z tajribasida bir guruh o'quvchilarga o'quv matnini bundan keyin sira kerak bo'lmasligini, ikkinchi-guruhga undan tez kunda foydalanilishini aytib o'zlashtirishni tavsiya qilgan. Olingan natijalarga ko'ra birinchi guruhda faoliyatda qo'llash metodikasi yuqori samara bergan, matn tez eslab qolishgan va uzoq vaqt esda saqlangan. L. V. Zankovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishning roli o'rganilgan, uzoq vaqt eslab qolishga intilish ham yaxshi samara berishi isbotlangan. Shunga asoslanib psixologiya faniga «uzoq vaqt eslab qolish», «hamma vaqt esda saqlash» iboralari kiritilgan.

Umuman kattalarning, xususan o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni, tarkib toptirish,

ularga eslab qolishning usullarini, fikr yuritish operatsiyalarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat (K. D. Ushinskiy) hisoblanadi. Lekin o'quvchilar materialni eslashni hush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir.

O'smirlarda xotiraning o'sishi. O'smirlik yoshida xotira xususiyatlari sezilarli darajada o'zgaradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'proq mexanik xotira, o'smirlik yoshidagi o'quvchilarda esa mantiqiy xotira asosiy o'rin tutadi. Materiallarni umumiyashtirish va sistemaga solish, narsa va hodisalarning mohiyatini bilish natijasida, o'smir mantiqiy esda olib qolish va mantiqiy esga tushirishning afzalligini tushunib oladi. She'r, teorema va hokazolarni yodlab olmoq uchun ba'zida mexanik xotira ham kerak, albatta. Lekin bu mexanik esda olib qolish mantiqiy bog'lanishlar bilan birga bo'ladi. Masalan, o'quvchi tarixiy detallarni eslab qolmoqchi bo'lganda, bu detallarning ma'nosini tushunib, ularni ma'lum voqelik bilan bog'laydi. Geografik nomlarni eslab qolmoqchi bo'lganida, o'quvchi shu mamlakatni va u yerda yashaydigan xalqni birgalikda tasavvur qiladi. Maktab materialni taqqoslagan va sistemalashtirgan holda tushunib logik esda olib qolishga o'rgatadi.

O'quvchilar uchun tekst, she'r, teorema va boshqalarni ancha muvaffaqiyatli esda qoldirish usullarini topish nihoyatda muhimdir. O'quvchi faqat ana shunday usullarni o'zlashtirib olgandan keyingina, programma talab qilgan barcha narsani tez, muvaffaqiyatli esda qoldira oladi. Agar o'quvchilarning birortasida hali ham mexanik xotira ustunligi saqlanib qolgan bo'lsa, bu maktabning aybi bo'ladi. Bu pedagoglarning o'quvchilarni doimiy ravishda materiallarni bir-biri bilan taqqoslashga, predmetlarni o'zaro bog'lashga o'rgatmaganligining natijasidir.

Shuni ta`kidlash kerakki, matematikaga doir materiallarni o'zlashtirishda ham, boshqa fanlarni o'rganishda ham fan asoslarini bir-biri bilan bog'lash muhim ahamiyatga egadir.

Mnemik xotira - esda qoldirishni yengillatish maqsadida sun'iy ravishda qo'llanadigan usullar yig'indisi.

II bob. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nazorat ishi o'tkazishning samarali shakl va metodlari

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bayon yozishga o'rgatish yo'llari.

1-SINFDA BAYON USTIDA ISHLASH

To'la savodxonlikka erishishning muhim omillaridan biri, o'quvchilar nutq madaniyati ustida ishlash, ularni og'zaki va yozma nutqlaridagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va tuzatishdan iboratdir.

Shuning uchun 1-4-sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida bir turdagi yozma ishlar bilan chegaralanib qolmay, balki yozma ishning barcha turlari ustida mashg'ulot olib borish, o'quvchilarda fikrni keng ko'lamda va xilma-xil ravishda bayon eta bilish qobiliyatini o'stirish lozim.

Yozma ish turlaridan biri bayondir. Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma ravishda qayta hikoyalashdir.

Birinchi sinf dasturiga ko'ra matnni qayta hikoyalash mashqlari berilmaydi. Faqat aniq bir mavzuda rasmlarga qarab gap va kichik hikoya tuzish (inshoga tayyorgarlik mashqlari) o'rganiladi.

Tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish o'quvchilarda sodda gap tuzish ko'nikmasini hosil qiladi. O'quvchilar gapda so'zlarning tartibini, gap oxirida nuqta qo'yishni, bir gapni ikkinchi gapdan ajratishni o'rganadilar.

2-SINFDA BAYON USTIDA ISHLASH

Ikkinchi sinf ona tili dasturida o'quvchilarni o'qituvchi rahbarligida hajmi uncha katta bo'lmagan (40-50 so'zli) matnlardan' savollar yordamida bayon yozishga o'rgatish tavsiya etiladi.

O'qituvchining oldida ikkinchi sinf o'quvchilarini berilgan tayyor reja asosida bayon yozishga o'rgatish vazifasi turadi. O'quvchilar yozuv taxtasiga yozilgan savollarni to'g'ri o'qishi va ularning ma'nosini tushunishi, rejadagi savolga aniq javob berishi, qayta hikoyalashda va yozma bayonda o'zining javoblarini rejadagi savollar tartibida berishi lozim.

Yozma nutq malakalarini mustahkamlash uchun o'quvchilarni bayonda o'zlari yoza oladigan so'zlardan foydalanishga o'rgatish lozim. Shuni nazarda tutib, to'plamda tayyor reja asosida bayon yozish uchun matnlar berilgan.

Matnlar asosida bayon yozishda uning mazmunini ochuvchi savollar orqali tahlil qilish kerak. Hikoya mazmunini tahlil qilish o'quvchilarning hikoyadagi asosiy fikrni va hikoya qismlari o'rtasidagi bog'lanishni bilib olishiga yordam beradi. Bu esa mazmunni tushunmasdan shunchaki eslab qolishning oldini oladi.

Ikkinchi sinf o'quvchilarining reja bilan ishlashidagi asosiy talab ularning savollarni to'g'ri o'qishi va ularni matn qismlari bilan bog'lay olishidir. Bayon yozishga o'rgatish va uni yozishda quyidagi ish usullaridan foydalanish mumkin. Ikkinchi sinfda o'quvchilarni matn bilan tanishtirishda ishni tayyorgarlik mashqlaridan boshlash (matn o'quvchilar ko'z oldida bo'ladi) maqsadga muvofiqdir. Chunki bu ish keyinchalik bayon yozishdagi qiyinchiliklarning oldini oladi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarni matnni asta-sekin o'qiganda eshitishga, uning mazmunini o'zlashtirishga o'rgatadi. 2-sinfda bajariladigan barcha mashq turlari reja bilan alohida ishlashni talab qilmaydi. Chunki reja tayyor holda beriladi. (Sarlavha tanlanadigan mashqlar bundan mustasno.) Ikkinchi sinfda gap ustida ishlashga katta ahamiyat berish talab qilinadi. Matnni tahlil qilish yo'li bilan sodda gaplarni tuzish ko'nikmasi mustahkamlanadi, Matnni tahlil qilib, reja savollari ustida ishlash zarur. Bu sohadagi asosiy ishlar quyidagilardan iborat:

-Hikoya yoki uning qismlaridagi gaplar sonini aniqlash; ba'zi gaplarda nima va kim haqida gapirilganini ko'rsatib berish.

-O'qilgan reja savollari nechta gapga tegishli ekanini aniqlash.

-Gapdagi so'zlar sonini hisobga olish; tarkibidagi so'zlarni eslab qolish.

-Savolda uchramagan so'zlarni gapdan topish.

Masalan: Durдона kitobini qanday saqlaydi? Savol o'rniga gapdan «ozoda» so'zi topib yoziladi.

Reja savollariga javob tayyorlash sintaktik ishni talab qiladi. Ikki-uch gapni o'z ichiga olgan savollarga javob tayyorlash vaqtida keyingi gap ma'nosini tushuntirib beradigan qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Sintaktik ishni bajarganda ba'zan yozuv taxtasiga yozilgan parchani yoki gapni qisman tahlil qilishga to'g'ri keladi. Ko'pincha, bolalar gapdagi so'zlar tartibini buzadilar. O'qituvchi bolalarga gapdagi so'zlarni tartib bilan joylashtirishni o'rgatishi shart. Shu maqsadda quyidagi usullar ishlatiladi:

Yozuv taxtasiga biror-bir so'zi tushirilgan va uning o'rnida savol ma'nosini bildirgan so'z turgan gaplar yoziladi. So'ngra shularga javob beruvchi so'zlar qo'yib gaplar yoziladi.

Masalan: Chumoli nima topib oldi? Chumoli don topib oldi.

Gap so'zlar tartibi o'zgartirilgan holda yozuv taxtasiga yoziladi.

Masalan: *chumoli, chaqirdi, o'rtoqlarini.* Shu so'zlarning tartibiga mos chizma yozuv taxtasida beriladi. *Chizma:* nima nimalarini nima qildi? Endi so'roqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, *Chumoli o'rtoqlarini chaqirdi* gapi tuziladi.

Ikkinchi sinfda xatolarning oldini olish uchun o'quvchilarga talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarni bo'g'inlab aytishni mashq qildirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qator kelgan undoshli so'zlarni yozishdan oldin bolalar so'zni bo'g'inga bo'ladilar, bo'g'inlardan so'z yasaydilar, uni o'qiydilar yoki qisqa gap tuzadilar.

3-SINFDA BAYON USTIDA ISHLASH

3-sinfda yoziladigan hamma bayonlarni, asosan, ikki turga bo'lish mumkin. Birinchi turi o'qituvchi tavsiya qilgan tayyor reja, ikkinchi turi esa o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar bilan hamkorlikda tuzilgan reja asosida yoziladi.

O'qituvchi taqvim reja tuzishdan oldin matnlarni tanlaydi. Matndagi so'zlar, gaplar ona tilidagi qaysi mavzuga ko'proq mos ekanligini ham aniqlaydi. Shundan kelib chiqib matnlarni taqvim-mavzu rejasiga joylashtirish kerak. To'plamda ham iloji boricha shu tartibni hisobga olishga harakat qilingan.

O'qituvchi 3-sinf o'quvchilarini bayon yozishga o'rgatar ekan, dastur va matnlarning mazmuni orasidagi bog'lanishlarni nazarda tutadi. Ishni yengillashtirish maqsadida matndagi imlo qoidalariga oid so'zlar beriladi. Shuningdek, kuzatishdagi, o'qish darsligidagi materiallar bilan bayon matni orasidagi bog'lanishni tiklaydi. O'quvchilarning tayyor reja asosida yozadigan bayon matnlarining hajmi 60-80 so'zdan tuzilishi mo'ljallanadi. O'qituvchi bu bo'limda to'liq bayon uchun hajmi katta matnlar tanlaydi. So'ngra saylab yoki tanlab bayon yozish uchun hajmi katta matnlar beriladi. Ishning bunday turi o'quvchilarni to'rtinchi sinfda o'tkaziladigan matn mazmunini qisqartirib yozishga tayyorlaydi. Bo'lim boshida berilgan bayonning birinchi turi, tayyor reja asosida, bayon yozishda rejaning har bir qismiga javob bir yoki ikki gapdan iborat bo'lishi kerak. Shu bilan birga reja sarlavhasi ko'proq so'roq gap shaklida bo'lsa maqsadga

muvofigdir. Bu ish usuli ikkinchi sinfda ham qo'llanilgan. Bunday matnlar mumkin qadar yozuv taxtasida yoki qog'ozda berilishi lozim. Matnning rejasi qismlar va uning mazmuniga muvofiq bo'lishini o'quvchi doim o'z diqqat markazida tutishi zarur. Boshqacharoq aytganda, u reja bandiga javob nechta gapdan iborat, qaysi xat boshi yoki qaysi gap rejada aniq ifodalanmagan, nima uchun ifodalanmagan, yozuv taxtasidagi gaplardan foydalanish lozimligi ustida bosh qotiradi.

Dastlabki bayonlarga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarni matni qismlarga bo'lib gapirtirishga ko'proq e'tibor berish kerak va reja savollariga sodda gaplar bilan to'g'ri javob olishga erishish lozim. Shu bilan birga, bayonga puxta imloviy tayyorgarlik ko'riladi. Bu bayon darsning o'zida va oldingi ona tili darslarida xuddi ikkinchi sinfdagidek olib boriladi.

Asta-sekin atov va ikki tarkibli gaplar («Samad yordam berdi», «Bola shirin» va boshqa hikoyalar), shuningdek, umumiy xarakterdagi so'roq gaplardan iborat rejalar beriladi. Bu hol o'quvchilarga doimo qulaylik tug'dirmaydi. Chunki reja bandlarining (yuqoridagidek) ifodalanishi butun xat boshini (qismni) kengaytirib bayon qilishni talab qiladi. Bunday reja bo'yicha ishlash o'quvchilarga qulay bo'lishi uchun bayonning biror qismini birgalashib puxta tahrir qilish taqozo etiladi. Masalan, «Eng zo'r sovg'a» matnidagi rejaning to'rtinchi bandida «Oxiri ammasi sovg'asini uzatdi» deb berilgan. Bu qismga matndagi to'rtta gap javob bo'la oladi. Bayon mazmunini o'quvchi ongiga to'liq yetkazish maqsadida quyidagicha yordam beriladi. Ushbu parcha (to'rtta gap) oldindan yozuv taxtasiga yoziladi. O'quvchilar parchani ichda o'qiydilar, so'ng hikoya qiladilar. Rejaning bu qismida yana boshqacha ish turini qo'llash mumkin. Berilgan qismga to'liq javob olishda o'quvchilarga yordamchi savollar beriladi. So'ng yozuv taxtasiga yozilgan matn bilan o'quvchilarning hikoyasi taqqoslanadi. Berilgan parchani to'liq bayon qilishda o'quvchilarga shu tarzda yo'llanma berib boriladi.

Matnning bir-ikki qismi ustida xuddi shunday mashg'ulot olib borish natijasida o'quvchilar, birinchidan, o'qituvchining o'qigan hikoyasini diqqat bilan tinglashga, ikkinchidan, reja sarlavhalarini puxta o'ylashga va bayon matnini to'liq

qayta hikoyalashga o'rgatiladi. Birinchi yarim yilda to'liq qayta hikoyalashga o'rgatish uchun «Yaxshilik yerda qolmas» matni yuzasidan tayyorgarlik ko'rish darsini namuna sifatida ko'rsatamiz. Bayonga tayyorgarlik ko'rishda sinfdan tashqari o'qish darslarida yaxshilik qilish, bir-biriga yordam berish haqida suhbat o'tkazish ma'qul. Ona tili darslarida jo'nalish va chiqish kelishiklari qo'shimchalarining yozilish qoidasi eslatiladi. *Holatga, falokatdan, tuzoqqa* so'zlari mashq qilinadi.

I. Tanlab bayon yozish yozma bayon sifatida ham o'tkaziladi. Tanlab bayon yozishda matn o'quvchining ko'z oldida bo'lmaydi. O'quvchi butun matn mazmunini yoritib berishda qiynaladi. Shuning uchun matn qismlarining mazmuni tugallangan bir fikrda bayon qilinadi. Tanlab bayon yozishda quyidagi ish turlarini qo'llash o'quvchilar uchun foydali va qiziqarlidir. Hajmi kattagina bo'lgan matn mazmunini aralashtirib beriladi - bu esa voqeani tushunishga va ko'proq tafsilotlarni kiritishga imkoniyat beradi. Shu usulda o'quvchilarning mantiqiy faoliyatlarining ayrim tomonlari taraqqiy ettiriladi. Bolalar material tanlash, uni chegaralash, mavzuni qisqaroq bayon qilishga o'rgatiladi, qisqaroq bayon qilishga o'rgatiladi.

Uchinchi sinf o'quvchilarining bayonlarini tekshirganda o'qituvchi barcha imlo xatolarini tuzatishi shart emas, balki diktant va boshqa nazorat ishlaridagi xatolarni ko'rsatishda qo'llangan usullardan foydalanishi ham mumkin. Uchinchi sinfda bayonlar muhokamasiga maxsus dars ajratmay, navbatdagi ona tili darsida bayon matnining mazmunini yoritishda va gaplarni tuzishda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish ishiga 12-15 daqiqa vaqt ajratish kifoya qiladi. O'quvchilarning bayonda yo'l qo'yadigan xatolari ustidagi ishni shunday rejalashtirish kerak-ki, bu ona tili darsida navbatdagi grammatik imloviy mashqlar bilan qo'shilib ketsin. Bu jarayonda ham o'quvchi xotirasining ahamiyati katta bo'ladi.

4-SINFDA BAYON USTIDA ISHLASH

Ma'lumki, uchinchi sinfda bayon o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan tayyor reja hamda o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib tuzilgan reja asosida o'tkaziladi.

To'rtinchi sinfda esa yuqoridagi bayonning ikki turi bilan birga,

- mustaqil tuzilgan reja asosidagi bayon;
- qisman tasvir bo'lgan bayon;
- grammatik topshiriqli bayon;
- matn mazmunini qisqartirishga oid bayon va nazorat bayonlaridan foydalaniladi.

Qisman tasvir bo'lgan bayon; grammatik topshiriqli bayon va qisqartirilgan bayonlar alohida bolim qilib ajratilmaydi. Qisman tasvir bo'lgan bayon, grammatik topshiriqli bayon uchinchi bo'limga, qisqartirilgan bayon esa birinchi hamda uchinchi bo'limga kiritilgan. Tayyor reja va jamoa bo'lib tuzilgan reja asosidagi bayon ustida ish ikkinchi sinfda ham o'rganilgan. Ishning bu turi to'rtinchi sinfda matn mazmunining chuqur tahlil qilinishi va murakkabligi bilan ajralib turadi.

O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini ko'proq asarning hamma tafsilotlarini kuzatib, matn qismlaridagi voqealarni izohlab berishga qaratadi. Masalan, «*Zohid Ziyrakka nimalarni o'rgatdi?*», «*Nima uchun chol odamlarni yordamga chaqirdi?*» kabi bir qator savollar o'quvchilarni matnni diqqat bilan eshitishga o'rgatadi. Ular matndagi tafsilotlarning hammasi bir-biriga bog'langanligiga ishonch hosil qiladilar va shunga odatlanadilar. Bayonni yozish vaqtida o'quvchilarning o'zlari matndagi kerakli ma'lumotlarni bayon qilishga harakat qiladilar.

Matnni tahlil qilishda asosli baho berishda qisman fikrlash va xulosa chiqaruvchi savollar ham qo'shiladi. Masalan, rejaning «*Ari cho'pni kema qilib falokatdan qutildi*» gapi asosli javob berishni talab qiladi. («Yaxshilik yerda qolmas»).

«*O'rmonchi bemorni qanday davoladi?*» savolini eshitgan o'quvchilar ijobiy javob beradilar («Ona ayiq»), ammo o'qituvchi javobni asosli tushuntirishni talab qiladi: «*O'rmonchi bemor oyog'idagi tikanni qanday oldi?*» Matnlar tahlilining qiyinlashuviga yana bir sabab shuki, matnlarga qisman tasvirlash kiritilgan,

Biz qisman tasvirlash mavjud matnlarni tahlil qilishda o'quvchilar diqqatini tasvirning bosh mazmuni bayon qilishdagi o'rniga qaratmog'imiz kerak. «Uvol» matniga. (138-bet) ongli baho berishda o'quvchilar Anvarjonning ko'rinishini tasvirlash o'rnini tushuntira olishlari kerak.

Bayon ustida ishlashda **grammatik topshiriqli bayon yozishga o'rgatish** muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bayonning bu turi to'rtinchi sinfda o'tkaziladi. Bunday bayonni yozdirishdan avval o'qish darslarida o'quvchilarning o'qigan ayrim hikoyalardagi shaxsni o'zgartirib qayta hikoyalash yuzasidan mashqlar o'tkazilgan bo'lishi kerak. O'quvchilar shaxsni o'zgartirib hikoyalash haqida ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng bunday turdagi bayonni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bayonning bu turi o'quvchida hikoyadagi gaplarni qayta tuzishni talab qiladi. Chunki hikoya I shaxs nomidan berilgan bo'lsa, uni III shaxs nomidan, III shaxs nomidan berilgan bo'lsa, I shaxs nomidan hikoya qilish va bunda ega, kesimlarni shaxs va sonda moslashtirish lozim. Ayrim hollarda I shaxs nomidan berilgan hikoyalarni III shaxs (birlik) nomidan bayon qilishda shaxsni aniq ko'rsatish uchun unga birorta ism tanlashga to'g'ri keladi. Chunonchi, to'plamdagi «Ozod elning o'g'liman» (144-bet) matni «*Men 1990-yil 27-fevralda Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida tug'ildim*» (I shaxs birlik) degan jumla bilan boshlanadi. O'quvchidan hikoyani III shaxs nomidan bayon qilish talab qilinadi.

To'rtinchi sinfda bayon ustida ishlash asta-sekin murakkablashib boradi. Bu murakkablik shundan iboratki, o'quvchilarning o'zlariga reja tuzish o'rgatiladi. Hatto o'quvchilar o'zlari mustaqil tuzgan reja asosida bayon yozadilar. Bunda o'qituvchining vazifasi - o'quvchilarni matnni qismlarga bo'lib o'qishga o'rgatishdan iboratdir. To'plamda reja ustida jamoa bo'lib ishlash uchun matn berilgan. Bu ish uchinchi sinfda olib borilgan metodik usullar va yo'llar bilan amalga oshiriladi. Bular so'z bilan tasvirlash, matnni qismlarga bo'lish (o'qituvchi bergan sarlavha asosida), o'quvchilar daftarlaridagi matnni qismga bo'lish, tanlab hikoya qilish yoki qayta tanlab hikoya qilish asosida qismga ajratishdan iboratdir. To'rtinchi sinfda bayon rejasini jamoa bo'lib tuzish, asosan, o'quvchilarning mustaqilligini oshirishga qaratilgan. Birinchi yarim yil oxiriga borib o'quvchilar

o'zlari mustaqil reja tuzishlari va matnning keng mazmunini bayon qila olishlari ko'zda tutilgan. «Sinf doshlar», «Aql» matnlari shunga oiddir. (122, 124-betlar)

Reja tuzishga o'rgatish jarayonida jamoa bo'lib reja bandlarining o'rnini almashtirish mashqlari ham alohida o'rin tutishi mumkin. Bunday mashqlarning ajralib turadigan tomoni shuki, reja asosida avval ishtirok etuvchi shaxslar harakati yoki hodisa tasvirlanadi, keyin avval bo'lib o'tgan hodisalar yoki bayon qilingan hodisadan birmuncha avval bo'lgan hodisa, ya'ni tadrijiy ketma-ketlikka rioya qilinmagan holda tasvirlanadi.

To'rtinchi sinfda ta'limiy bayon yozish vaqtida imlo lug'atidan foydalanishga o'rgatish ham alohida ahamiyatga ega. Ammo bunda o'quvchilar lug'atga doimo tayanib ishlashga o'rganib qolmasliklari kerak. Shuningdek, o'quvchilarning faolligini yanada oshirishda imlo tahlilidan foydalanish yaxshi natija beradi. Matnni o'qib, tahlil qilib bo'lgandan keyin, o'qituvchi o'quvchidan matndan o'rganilgan imloga doir so'zni aniqlashi va uning yozilishini tushuntirib berishini so'rashi lozim. To'rtinchi sinfda bayon tahliliga alohida soat ajratish ko'zda tutiladi. Dars shunday rejalashtirilishi lozimki, har bir o'quvchi o'zi yo'l qo'ygan uslubiy yoki imloviy xatolarini tushunsin. O'quvchilarning xatolarini tahlil qilish jarayoni to'rtta asosiy ish turlaridan tashkil topadi:

1. O'qituvchining tekshirish natijalari haqidagi tushuntirishi.
2. Yozma ishlardagi xatolarni jamoa bo'lib muhokama qilish va to'g'rilash yo'llari.
3. O'quvchilarning mustaqil ishlari.
4. Ishga yakun yasash.

Bu ish turlari dars davomida o'rni almashtirilgan holda amalga oshirilsa ham bo'ladi. Har bir dars bosqichida ishni shunday tashkil qilish kerakki, butun sinf diqqati ishning bir turiga qaratilmog'i va shu ish chegarasida barcha topshiriq va xatolar ustida ish olib borilmog'i lozim. Bu darslar, ayniqsa, o'quvchilar bayonga mustaqil reja tuzib yozganlarida muhim hisoblanadi.

O'qituvchi ishlarni tekshirish vaqtida reja sifatiga e'tibor beradi va uni alohida baholaydi, hamda tahlil o'tkazish uchun xatolarni turlarga ajratadi.

Eng ko'p uchraydigan umumiy xatolar - matn qismlari chegaralanishining noto'g'ri bo'lishi; matn juda ko'p qismlarga ajratib yuborilishi, tanlangan sarlavhaning qism mazmuniga mos kelmasligidir.

O'quvchi darsda bajarmoqchi bo'lgan topshiriqni o'qituvchi bilan maslahatlashib yozadi. O'quvchi gap tuzishda yo'l qo'ygan kamchiliklarini ham mustaqil tarzda to'g'rilaydi. Agar xatolar bir qator o'quvchilarda aynan o'xshash bo'lsa, u holda alohida mashqlar o'tkazish lozim. Masalan:

-Yozuv taxtasida berilgan so'zlardan gap tuzing.

-Savol o'rniga tushirib qoldirilgan so'zni yozing.

-Yozuv taxtasida berilgan chizmani to'ldiring. Bu jarayonda ham o'quvchi xotirasining ahamiyati katta bo'ladi.

O'quvchiga juda ko'p miqdordagi uslubiy xatolarni mustaqil to'g'rilash tavsiya etilmaydi. O'quvchilarning yozma nutqlaridagi kamchiliklarini hisobga olish jarayonida o'qituvchi til darslarida o'rganiladigan dastur materiallarini ham o'rganishga erishadi.

2.2. Ona tili darslarida lug'at ishi va uning bayon yosishdagi ahamiyati.

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida „Ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy - estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir”, deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq

matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o'rnini, vazifasi bilan belgilanadi. Til — aloqa vositasi, chunki so'zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro'yobga chiqqan fikrni anglaydi.

Ona tili fani o'quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish, tilning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifni o'zlashtirishgina emas, balki ona tilning boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talafifuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgarar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llangan har bir so'zning va ta'limiy jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlar va ularning ma'nolari quyidagicha tanishtiriladi:

1. O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish.

O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchi uning ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf „Ona tili“ darsligida xabib (*do'st*), darparda (*oyna o'rniga shaffof qog'oz yopishtirilgan deraza parda*), mag'rur (*kekkaygan, mag'rur — kamtor*), kamol (*har tomonlama yetuk, to'kis, kamol topmoq — xazon bo'ymoq*), xaroba (*qarovsiz qolgan vayrona*), qardosh (*do'st, birodar, qarindosh-urug'*), safdosh (*harbiy xizmatda birga,*

tashkilotda birga), sarkarda (*qo'mondon, lashkarboshi*), zeb (*bezak, ko 'rk, husn*), qasr (*hashamatli saroy, ko 'shk*) kabi so'zlarga duch keladilar.

Bunday so'zlarning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarda so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.

O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so'zlarning hamma ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma'nosini o'zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1—2-sinflarda o'quvchilar ko'p ma'noli so'zning bir-ikki ma'nosi bilan tanishsa, 3—4-sinflarda yana boshqa ma'nolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlari: fonetika, leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis (boshlang'ich sinfda bu bo'limlar „Tovushlar va harflar“, „So'z“, „Gap“, „Bog'lanishli nutq“ deb nomlanadi) ni o'rganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlarning ma'nolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. Masalan, „*niyati buzuq*“ iborasini tushuntirishda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalaniladi:

—Bu iborani „*soat buzuq*“ birikmasi bilan taqqoslang.

—Qaysi biri o'z ma'nosida qo'llanyapti? (soat buzuq)

—Qaysi birikma boshqa ma'noda qo'llanyapti? (fikri buzuq)

—„*Niyati buzuq*“ birikmasi qanday ma'noni ifodalayapti? (O'quvchilar o'ylab, niyati yomon kishilarni „niyati buzuq“ deyishadi, deb izoh beradilar)

Ko'rinadiki, taqqoslash usuli so'z ma'nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. „*Quloch otib*“, „*tanbeh yedi*“, „*ko'zi o'ynar*“, „*qalbi olov*“, „*til topishdi*“ kabi iboralarning ma'nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

I-sinf darsligida „*Xiva ona tarix tilmochi*“, „*urush yo'lini taqqa bekitdik*“, „*biz ma'nosiga zeb bersak*“, „*rediskaga akaman*“, „*karvon bo'lib kelamiz*“ („Turnalar“), „*chehrasiga tabassum yugurdi*“, „*bahor oq bulutni yetaklab ketdi*“,

2-sinf darsligida „*dov-daraxtning soch-soqolini qirishdi*“, „*Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi*“ kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o'quvchini so'z va iboralardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanishga undaydi, nuqtaning emotsionalligini oshiradi.

3. O'quvchilar tilida kam qo'llanadigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash.

Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llanadi. Bu so'zning ma'nosini o'quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o'rnida oddiy so'zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so'zlarni qo'llaydi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, *jim — tinch — osuda — osoyishta, yurakdan — dildan, soat strelkasi — soat millari, garmdori — qalampir, rayon — tuman* kabi.

So'zlarning qo'llanishini faollashtirish uchun yozma ishlar o'tkazilayotganda ham o'quvchilar e'tiborni ayrim so'zlarni boshqasi bilan almashtirishlariga qaratiladi. 1-sinfda rasmlar asosida og'zaki hikoya tuzayotgan o'quvchilarning nutq birliklari bir-biridan farqli bo'lishi, biri ikkinchisining so'zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, *Shirinsuxan — shihnso'z, nasim — tonggi yel* (shamol), *tanbeh berdi — dashnom berdi, zilolsuv — tiniq suv, kichik — mo'jaz, tik — adit, nafis — nozik* kabi.

Yozma bayon yozishga tayyorlanish jarayonida ham (2-sinf) so'zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so'zlar tanlashga e'tibor berish lozim.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta'sir qiluvchi ko'chma ma'nodagi badiiy ifodalar ko'p qo'llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishlash o'quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqini adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash. Bunday so'zlar darslikda kam qo'llanadi. Bunday so'zlarning bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lganlarini ajratib olib „Bilib qo'ygan yaxshi“ rubrikasi ostida ishlansa, o'quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

5. Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish. Avvalo, grammatik

atamalarning to'g'ri talaffuzi, imlosi o'rgatiladi. Shundan so'ng misollar asosida tilning mazmuni ochiladi, so'ngra o'qitish va mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning atama ma'nosini to'laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug'at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. *So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash.* Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakldosh so'zlar ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi. Masalan, *ziyrak* — *Zirak*: odamning xususiyati (sezgirligi) — *ziyrak*; quloqqa taqiladigan taqinchoq — *zirak*. Bu so'zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. *So'zlarni kuzatish usuli orqali ularning imlosini, ma'nosini va talaffuzini o'rgatish.* Bu usul o'zakdosh so'zlarni o'rganish jarayonida, *ko'm-ko'k*, *oppoq*, *qip-qizil* kabi sifatlarning ma'no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilar *guldori*, *gulchi guldori*, *gulli*, *gulsiz*, *gulla* so'zlarining tarkibini kuzatadilar, bu so'zlar ma'nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so'zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shu o'rinda o'qituvchi so'zlarni o'z so'ziga aylantirish orqali aniq fikr yuritishga o'rganish o'quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o'zgarayotgan so'zlarning imlosini o'rgatishda ham qo'llaniladi: *og'iz+im* — *og'zim*, *singil+im* — *singlim*, *-u+ga* — *unga*.

3. *So'zlarni belgilariga ko'ra guruhlash usuli.* Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo'lib, u ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so'zlarning anglatayotgan ma'nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonin beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog'liq. So'zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so'ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi: Masalan, qavm-qarindoshlik bo'yicha guruhlash quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ota urug'i: *ota*, *amaki*, *amma*, *dada*, *buvi*, *buva*.

2. Ona urug'i: *ona*, *xola*, *tog'a*, *buvi*, *buva*.

Sifatlarda xususiyat bildiruvchi sifatlar (*sho'x*, *og'ir*, *bosiq*, *aqlli*, *aqlsiz*, *hissiz*, *andishali*, *dangasa*, *tanbal*, *ishchan*, *mehnatsevar* va *hokazo.*), ta'm

bildiruvchi sifatlar (shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r, mazali, bemaza, chuchmal va hokazo.) va shu kabilar guruhlash musobaqasi tarzida uyushtirilishi mumkin.

Ma'lum bir guruhdagi so'zlar ro'yxatini tuzish ishini alifbo asosida yozdirish ham mumkin. Bu jarayonda guruhlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Bolalar o'yinlari nomining lug'atini tuzing.
2. O'zingiz bilgan shoir nomlari ro'yxatini tuzing.
3. Ertak nomlari ro'yxatini tuzing.
4. Joy nomlari ro'yxatini tuzing.
5. Ma'nodosh so'zlar ro'yxatini tuzing va boshq.

Bular o'rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog'liq holda tashkil etiladi. So'zlarning izohli lug'atini sinf yoki maktab miqyosida tuzib, osib qo'yilib, umumiste'molga kiritish mumkin. Bunda „*O'quvchilar pochtasi*“ tashkil etilishi ham mumkin. O'quvchilar qaysi so'zning ma'nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so'zni yozib yashikka tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so'zlar ma'nosi, imlosi, izohi ustida ishlanadi.

Lug'at ustida ishlashning lingvistik asoslari. So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi *lug'at tarkibi* yoki *leksika* deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi. O'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat

yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik „O'zbek tilining izohli lug'ati" da 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan bo'lib, bular umumiy qo'llaniladiganlaridir. Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, lining asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shujumladan, ona tili darslarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar

tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

5. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H. Olimjon, M. Shayxzoda, G'.G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, X. To'xtaboyev, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, Sh.Sa'dulla, Z. Diyor, N.Fozilov, T.Adashboyev, A.Obidjon kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi *yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar* kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Bulardan tashqari, kinofilm va teleko'rsatuv matnlari, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi.

Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlan'ich sinf o'quvchilari uchun „Imlo lug'ati" mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

So'z ma'nosini tushuntirish

So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birliklari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, *sabo* — *shabada*, *mudofaa* — *himoya*, *sozanda* — *musiqachi*, *diyori* - *vatan*, *inshoot* — *binoy*, *samo* — *osmon* kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash

orqali tushuntirish. Masalan, *ishchan* tushunchasini *dangasa* tushunchasiga, *rostgo'y* so'zini *yolg'onchi* so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha — boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, *o'zboshimchalik* — o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; *mutaxassis* — biror hunar egasi; *shunqor* — uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; *mesh* — mol terisidan tikilgan idish; *guldon* — gul solib qo'yiladigan idish va boshq.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, *kombayn* — bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; *ekskavator* — bir vaqtning o'zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; *aerodrom* — samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, *yantoq* — suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; *akula* — okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

2.3. Nazorat ishlarida xatolarning turlari va ularni bartaraf etish yo'llari.

Orfografiya o'qitishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktasion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rin tutadi.

Maktabda o'tkaziladigan barcha turdagi yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hamdir. Binobarin o'quvchilarning savodxonligini aniqlashda yozma ishlarning hamma turlaridan foydalanish mumkin.

O'quvchilarning orfografik malakasi haqida tasavvur ta'sir qilish uchun ko'proq nazorat diktant, hamda insho va bayonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning yozgan ishini tekshirib, xatolarini tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni bajarishga qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo qaraydi. O'quvchi o'zining har qanday yozma ishi o'qituvchining e'tiborida bo'lishini sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ilmiy oziq beradi.

Xatolarni tuzatishga o'quvchilarning o'zini ham jalb qilish mumkin. Lekin bu yozma ishning harakteriga bog'liq. Sinfda bajariladigan mashqlar ko'pincha sinfnig o'zida o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozganlarini tekshiradi, xatolarini tuzatadi, yoki partada o'tirgan ikki o'quvchi daftarlarini almashtirib, bir-birlarining yozganlarini kuchlari yetganicha tekshiradilar. Bunda o'quvchilarning savodxonlik darajasi inobatga olinadi.

Nazorat harakteridagi ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

Uyda bajariladigan mashqlar ham tekshirilishi mumkin. Bu quyidagicha bo'ladi:

- A) parta ustiga qo'yilgan daftarni tekshirib chiqish;
- B) biror o'quvchini doskaga chiqarib, unga yozganini o'qitib izohlatish;
- V) har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

Ko'chirib yozilgan mashqlar, grammatik-orfografik tahlillar mana shu usul bilan tekshirilishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar daftarini to'liq tekshirish imkonini bermaydi, shuning uchun daftarlar har ikki uch soat dars o'tilganidan so'ng yig'ishtirib olinib, darsdan so'ng yoki uyga olib ketib tekshirib chiqilishi kerak.

Xatolarni qanday tuzatish kerak?

Xato tuzatish ham ijobiy harakterdagi ishlar jumlasiga kiradi. Maktabda xatolarni tuzatishning xato yozilgan harflar ustidan qizil siyoh bilan chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lekin bu usulni hamma vaqt ham samarador deb bo'lmaydi. Agar o'quvchi o'zbekcha so'zlarda (tala-dala) yoki faol lug'atda o'tib ketgan ruscha, forsha va arabcha so'zlarda (maktab-maktap), (g'isht-g'ish), (ruchka-ro'chka), (stol-istol) xato qilsa va bu xatolarni tez payqab olish uquviga ega bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozib qo'yish usulidan foydalanish mumkin. Imlosi qiyin so'zlarda (vzvod-vzvot; muzaffar-muzafar kabi) xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa va psixologik tomondan ana shu so'zlarning fotokopiyasini o'quvchi o'z ongida aks ettirish kerakligi e'tiborga olinsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri shakli yoziladi.

Xato grammatik formada bo'lsa, harf emas, forma o'chiriladi yoki uning ostiga chiziladi: qurildi-quruldi, kulib-kulub. Chunki o'quvchi qaysi formada xato qilganini o'zi aniqlashi kerak. Ba'zi uslubchilar xatolarni o'qituvchi tuzatsa, o'quvchilar mustaqil ishlardan xoli qilib qo'yiladi deb, bu usulni qoralaydilar. Bu fikr to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki tuzatishning bu usuli ham o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi: o'quvchi maktab degan so'zda b o'rniga p yozgan bo'lsa, o'qituvchi uni tuzatib, o'quvchida shu qoidaga mos keladigan bir qancha so'zlar (kitob, bob, to'lib, o'qib, ayab, boylab) topishni vazifa qilib beradi. Lekin xato tuzatishning bu usulini yagona usul deb ham bo'lmaydi. Ayrim xollarda xato tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashini talab qiladigan usullaridan ham foydalanish mumkin. Xatoni to'g'irlamasdan chizib qo'yish, xato yozilgan harfning yoki shu harfni o'z ichiga bo'g'in yoki so'zning tagiga chizib qo'yish, qaysi qatorda xato qilingan bo'lsa, o'sha qator hoshiyasiga belgi qo'yish ham xato tuzatish usullaridir. Lekin xato tuzatishda bu usullar aralash qo'llanmasligi kerak. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyati, qoidaning sodda yoki murakkabligi, o'quvchilarga o'zlashish, ularni mustaqil ishlashga yo'llash darajasi hisobga olinishi kerak.

Orfografiya o'qitish tizimi butunicha imlo xatolarining oldini olishga qaratilgan. Yozilishi qoida bilan izohlanadigan orfogrammalarda bo'ladigan xatolarning oldini olish uchun bunday so'zlarni doskaga yozib, ularning yozilishiga

o'quvchilarning diqqatini jalb qilinadi: Masalan, b tovushining yozilishida xato bo'lmasligi uchun, o'qituvchi b va p tovushli bir qancha so'zlarni doskaga yozib, ularning imlosini esda saqlab qolish kerakligini ogohlantiradi. Xatolarning oldini olishda turli ko'rgazma va jadvallardan ham foydalaniladi. Ko'rgazmalar mavzuga doir yoki umumiy bo'lishi mumkin. Mavzuga doir ko'rgazmani ma'lum qoida, masalan b undoshi, jarangli-jarangsiz tovushlar, x va h undoshlari bo'yicha tayyorlab, sinf devorida osib qo'yiladi. Ko'rgazma umumiy bo'lganda, unga o'quvchilar ko'p xato qiladigan va har xil qoidaga xos so'zlar kiritiladi. Ko'rgazma o'z vazifasini o'tab bo'lguncha, ya'ni undosh tovushlarning yozilishida o'quvchilar xato qilmaydigan bo'lgunga qadar sinf devorida osig'liq turishi mumkin.

Xatolarni oldini olishda «Lug'at doskasi» dan ham keng foydalanish mumkin. Orfografik xatolarni oldini olish talaffuzni kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak: imlosi qiyin so'zlarni bo'g'inma-bo'g'in, harfma-harf aytib berishga aslo yo'l qo'ymaslik lozim. Maktabda ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi deyarli orfografiya o'qitishni yaxshilashga bo'ysundiriladi.

Xatolar ustida o'quvchining o'zi ham ishlaydi. Bunda o'quvchilarni o'zlariga xatolarining sabablarini yozma va og'zaki izohlatish, qaysi qoidada xato qilingan bo'lsa, unga mos so'zlar toptirish qoidani takrorlatish usulidan keng foydalanish mumkin. Ba'zi o'quvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha bor yozdirish usulidan ham foydalanadilar. Lekin bu hamma vaqt ham samarali natijani beravermaydi. Bu usuldan yozilishi ma'lum qoida bilan izohlanmaydigan so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatishda foydalanish mumkin. O'quvchilardan vaqti-vaqti bilan qaysi qoidalarda xatoga yo'l qo'yganini, buni tuzatish sohasida nimalar qilinganligini so'rab turish mumkin. Ba'zan bir o'quvchining daftarini ikkinchi o'quvchiga tekshirtirish usulidan ham foydalaniladi. Bu o'quvchilarning qiziqishini ortiradi. Shunday hollar ham bo'ladiki, o'quvchi o'zi ma'lum so'zni xato yozadi-yu, lekin o'rtog'ining daftarida shunday yozilgan so'zning xato ekanligini topadi. Shunga extiyot bo'lishi kerakki, o'quvchilar o'rtoqlarining xatolarini tuzutaman deb, boshqa xatoga yo'l qo'ymasinlar, daftarlarni bekorga bo'yamasinlar. O'quvchi u yoki bu so'zning xato yozilganligiga to'la ishonsagina, uni to'g'irlash kerakligini anglasin.

O'quvchilar daftar tekshirayotganda, o'qituvchi sinfda aylanib yurib ayrim o'quvchilarga maslahat beradi. Tekshirish uchun berilgan muddat tugagach, o'quvchilar topgan xatolarini aytadilar. O'quvchi xato yozilgan deb hisoblagan so'zini, alohida qog'ozga yozadi, oxirida o'qituvchi ishtirokida buni aniqlab, keyin uni tuzatadi.

Xatolarni tuzatishda o'quvchining uyida mustaqil ishlashi juda katta ahamiyatga molikdir. Yo'l qo'yilgan xato bilan bog'liq qoidani o'qib kelish, unga mos mashqni bajarish, lug'at ustida ishlashning natijasi beqiyos kattadir.

O'quvchi ko'p xato qilib, past baho olaversa, ruhiy tushkunlikka tushib savodlilikka bo'lgan ishonchini yo'qotib qo'yishi mumkin. Bunday xol yuz bermasligi uchun o'qituvchi o'quvchining ruhini ko'tarishi, savodli bo'lib ketishga ishonch hosil qilishi, uning irodasini tarbiyalashi, unda orfografik mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otishi kerak. Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlash tizimi bunday o'quvchilarning orfografik malakasiga bog'liq bo'lib, yakka yondashuvni talab qiladi. Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlashni ayrim qoidalarni so'rashdan boshlagan ma'qul. Ma'lum bir qoidaning mustahkam o'zlashganligi haqida ishonch hosil qilgach, navbatdaxisiga o'tiladi. Shu asosda mashg'ulot asta-sekin murakkablashib boradi.

Mana shu yo'l bilan ko'p xato qiladigan o'quvchilar orfografiyani puxta o'zlashtirib boruvchi o'quvchilar bilan tenglashtiriladi. Ish jarayonida o'quvchining bu sohada erishgan yutuqlarini uni o'ziga sezdirish, buning sabablarini birga muhokama qilish ham muhimdir.

Odatda, yosh bola oilada ota-ona tili (dialekti) da so'zlashni o'rganadi. Maktabda esa adabiy tilni egallay boshlaydi. Adabiy til unga odatdagi tilidan boshqacharoq tuyuladi. Shu bilan birga o'quvchilar maktabda mahalliy shevada ham gaplashadilar. Hatto shunday hollar ham bo'ladiki, o'quvchilar maktabda, o'qituvchi oldida adabiy tilda gaplashishga harakat qilsa ham, boshqa sharoitda o'z mahalliy shevasida gaplashishini davom ettiradi, bu hol oqibatda o'quvchilarni yozma ishlarga ta'sir etadi. Ayrim dialektal xatolarni tugatish uchun maxsus mashqlar o'tkazish ham tavsiya qilinadi. Bunda yozma ishlarning ijodiy diktant

turidan yoki ko'chirib yozish usulidan foydalaniladi. Masalan, ko'pchilik qaysi qoidada dialektal xato qilgan bo'lsa, uni orfografik jihatdan to'g'rilab doskaga yoziladi. Buning talaffuzi bilan yozilishi qiyos qilinadi. Keyin bu to'g'irlangan so'z ishtirokida matnlar, jumlar tuzdiriladi. Umuman, dialektal xatolarni tugatish o'qituvchidan turli usullardan foydalanishni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har darsda o'tilayotgan mavzuni o'quchilarni dialektal xatolarini yo'qotish, ularni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bilan bog'laydilar. Talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning dialektal shakli bilan adabiy talaffuzdagi shakli qiyoslangan jadvallar tuzish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiy tilda	Shevada
Narvon	Shoti
Qozon	Qozan
Chumoli	Chumoliq
Keladigan	Keladig'on
Gugurt	Gurgut
Pomidor	Patinjon

Dialektal xatolarni bartaraf qilishga darslikda berilgan matnlardan talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan so'zlarni toptirish ham ijobiy natija beradi. Lug'at ustida ishlash jarayonida ham o'quvchilarning dialektal xatolarini tuzatib borish talab qilinadi.

Punktasion xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Tinish bulgilarini qo'llashda turli xil usullar bor:

1. Tinish belgilarining qo'yilishi ohang usuli asosida belgilanadi.
2. Tinish belgilarining qo'yilishi faqat mantiq va sintaktik asosda belgilanadi.

Puntuasiya usullari tilning fikriy va grammatik vositalarini hisobga olish asosida tuziladi (oxang ham shunga kiradi). Har qanday ohang va to'xtalish yozuvda belgi bilan ko'rsatilavermaydi, balki nutqning fikriy tomoniga ta'sir eta oladigan, ma'lum grammatik ahamiyatga ega bo'lgan to'xtalish va oxanglarga

belgi bilan ko'rsatiladi. Masalan boshlang'ich sinf ona tili darsida «Gap» mavzusi bor. Unda darak gapning oxiriga nuqta, so'roq gaplarning oxiriga so'roq, undov gaplar oxiriga undov belgisi qo'yilishi o'quvchilar ongiga singdiriladi. Ularni oxang orqali farqlash tushuntiriladi. Demak, tinish belgilarining bir turi og'zaki nutqda ohang orqali berilgan holatni ifodalaydi. Tinish belgilarining boshqa turi og'zaki nutqda oxang bilan emas, balki boshqa grammatik vosita bilan ifodalangan holatni bildiradi. Masalan, undalma gap bo'laklari bilan grammatik tomondan bog'lanmagani uchun vergul orqali ajratiladi. Tinish belgilarining yana boshqa bir turi na ohang yordami bilan, na boshqa grammatik vositalar bilan ifodalanishi mumkin bo'lmagan holatlarni ko'rsatadi (masalan, qo'shtirnoq). Bular to'g'ridan-to'g'ri nutqning fikriy jihatiga asoslanadi: Men «Zaynab va Omon»ni o'qidim. Punktuaasiya o'qitishda onglilikni ta'minlash uchun o'qituvchi sintaksisdan o'tiladigan mavzularni puntuasiyaga bog'lashi juda zarur. O'quvchi har bir gapning mazmuniga to'la tushungan bo'lishi bilan birgalikda, undagi tinish bulgining nima uchun ishlatilganligi, uning sintaktik vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilib turish kerak. O'quvchi o'rgangan puntuasiya qoidalarini yozuvda va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llay bilishi kerak.

Puntuasiya o'rgatish ohang kuzatishlar, to'xtalish va mantiqiy urg'u ustida kuzatish ishlari bilan bog'lab olib boriladi. Puntuasion savodlilik-bu, tinish belgilarini o'z o'rnida to'g'ri qo'llashdangina iborat bo'lmasdan, shu bilan birga, matnni ifodali o'qiy bilish ham demakdir. Bexato o'qiy olgan bola, albatta bexato ham yozishi kerak. Savodxonlik-boshlang'ich ta'lim dasturining asosiy maqsadlaridan biridir.

Diktantda xatoga yo'l qo'ygan o'quvchi ustozining tuzatishlariga, albatta, e'tibor bilan qaraydi. Biroq bu «ko'zdan kechirish» keyingi gal o'quvchining shu so'zni xatosiz yozishiga asos bo'lolmaydi. Xo'sh, shunday ekan, «Xatolar ustida ishlash» soatlari qanday tashkil qilinsa, bola shu xatoni keyingi gal takrorlamasligiga va imlo savodxonligining yaxshilanishiga erishish mumkin? Quyida malakali pedagoglar tajribasidan shu savolga javob axtaramiz.

Xato yozishdagi asosiy muammolar: Diktantda yo'l qo'yilgan xato o'quvchi yoshi va sinfidan kelib chiqib, u bilishi zarur deb qaralgan biror mavzuni yaxshi o'zlashtirmagani yoki tushunmaganini bildiradi. Qolaversa, o'quvchi yo'l qo'yayotgan xatoga qarab, uning nutqiy rivojlanish darajasi va muammoli jihatlari haqida xulosa chiqarish mumkin. Tovushlarni almashtirib yoki xato gapiradigan bola, albatta, diktantda ham o'sha so'zlarni xato yozadi. Tazyiq ostida bo'lib, kimdandir yoki nimadandir muntazam qo'rqib yurgan o'quvchi ham so'zlarning oxiridagi harflarni qoldirib ketadi. Xullas, imlo masalasi doimo dolzarb va jiddiy bo'lib kelgan. Shu bois, u pedagogikada hal etilishi shart bo'lgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar imloviy savodxonlikni shakllantirish uchun imlo qoidalari ustida muntazam ishlab, bir qator ta'limiy diktantlarni o'tkazishni va o'quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini muntazam tekshirib, tahlil qilib borishni maslahat beradi. Ammo ular ustida ishlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'yayotgan xatolarni guruhlashtirib olishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili daftarlarini ko'zdan kechirsak, quyidagi xatolarga duch kelamiz:

— grafik xatolar: harf elementlarini tashlab ketish, harflarni tushirib qoldirish, ularning o'rinlarini almashtirib qo'yish va h.k;

— so'z o'zagidagi xatolar: jarangli va jarangsiz undoshlarni almashtirish, yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning birini tashlab ketish, talaffuzda tushib qoladigan undoshlarni yozuvda ham tashlab ketish; — so'z va shakl yasovchi qo'shimchalarni xato yozish; — bo'g'in ko'chirishdagi xatolar; — bosh harflarni qo'llashdagi xatolar; — shevaga oid xatolar.

1. Grafik xatolarni tuzatish mashqlari: — kartochkaga harf elementlari tushirib qoldirilgan 8—10 tadan so'z yozilib, o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar esa tushirib qoldirilgan harf elementlarini o'z o'rniga qo'yib, daftarlariga ko'chirib yozadilar; — yana shunday kartochkalarga harf elementlarini noto'g'ri qo'yib, o'quvchilarga ularni to'g'rilab ko'chirish vazifasi topshiriladi; — doskada harflari tushirib yozilgan murakkab so'zlar «Qaysi qator oldin yozadi?» ta'limiy o'yini o'tkazish orqali mustahkamlanadi.

2. Orfografik xatolarni tuzatish mashqlari: O'quvchilarga jarangli undosh bilan tugagan so'zlarni jarangsiz undosh tarzida o'qib, lug'at diktanti o'tkazish; tarkibida ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarning yarmini aytib, qolganini o'quvchi yozishini ta'minlaydigan lug'at diktanti o'tkazish. Masalan, *al-alla, el-ellik, is-issiq, ar-arra* kabi.

3. So'z va bosh harflarni tuzatish mashqi: — so'zlardagi xatolarni tuzatish uchun o'quvchilarga shu so'z ishtirokida gap yozdirish; kichik harf bilan yozilgan so'zlarni esa ana shu so'zning kichik va bosh harflar bilan yoziladigan shakllari misolida gaplar tuzish. Masalan, *O'lkamizga bahor keldi. — Men Bahor ko'chasida yashayman. Ona — aziz inson. — Biznikiga Aziz keldi. Sayyoh orolda qoldi. — O'qituvchi Orol dengizi haqida gapirib berdi.*

4. Shevaga oid so'zlarni tuzatish mashqi: Bu turdagi xatolarni tuzatish uchun «**Chalg'itma diktant**»dan foydalanish yaxshi samara beradi. O'tkazilgan tajribalarda o'quvchilar diktant paytida shoshilmay, fikrlab, sheva bilan adabiy tilning farqini anglagan holda matnni yozishga harakat qilishgan. Chalg'itma diktant 3 - va 4-sinflarda olinishi mumkin. Chunki bu sinflarda imloviy jihatlarni qamrab oluvchi dars mavzulari ko'proq. Chalg'itma diktant o'tkazilishidan oldin o'qituvchi diktantni sheva asosida aytib berishini, lekin undagi so'zlarni o'quvchilar imlo qoidalariga muvofiq yozishlari lozimligini uqtiradi. Masalan, «Diktantlar to'plami»dagi «Qurbaqa» matni Andijon shevasida quyidagicha aytib berilishi mumkin: ***Qurbaqa foydali jonivor. Kunduzi qurbaqa biror namroq joyda yotadi. U kech kirgandagina ovga chiqib, turli zararli hasharotlarni tutub yeydi.*** Bunday diktantlar chog'ida o'quvchilar bitta matndan besh-oltita so'zni to'g'rilab yozishi natijasida muayyan darajada imloviy ko'nikmaga ega bo'lib boradilar. Mazkur diktant, ayniqsa, bayon va inshodan oldin o'tkazilsa, bolalar shevaga oid xatolarga yo'l qo'ymay yozadilar. Diktant o'tkazilishi davomida o'qituvchi shoshilmasligi, chalg'itadigan so'zlarni to'g'rilamasligi darkor. Diktantni tekshirish o'quvchilar bilan birga olib boriladi. Bunda matn doskaga ilinib, o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarini o'zlari topib tuzatadilar. Bu jarayonda ham o'quvchi xotirasining ahamiyati katta bo'ladi.

O'quvchilar xotirasini shakllantirishga qaratilgan o'yinlar juda ko'p bo'lib ulardan birini tavsiya etamiz:

- 1) **“O'zgarishni top”** : Sinf xattaxtasi tepasiga bir qancha predmetlarni teramiz: *ayiqcha, archa, quyoncha, ruchka, kitob, gul, stakan, bayroqcha, oq ayiqcha, qo'g'irchoq*. O'quvchilarga predmetlarni yaxshilab ko'rib, ularning rangi va o'rnini eslab qolish buyuriladi va o'qituvchi komandasi bilan bilan o'quvchilar boshlarini partaga qo'yishadi va bir daqiqa ko'zlarini yumishadi. Bu vaqtda o'qituvchi predmetlarning o'rnini almashtiradi va birortasini olib qo'yadi, yoki biror yangi predmet qo'shib qo'yadi. So'ng ko'zlarini ochish komanda qilinadi. Qaysi o'quvchi predmetlarni o'z o'rniga to'g'ri qo'ysa, bu g'olib sanaladi va rag'batlantiriladi.
- 2) **“O'rniga qo'y”**. Kichik matn 3 marta o'qib chiqiladi. So'ng o'quvchilarga gaplarning o'rnini almashtirib qo'yilgan varianti ko'rsatiladi. O'quvchilar gaplarning o'z o'rnini topishi kerak bo'ladi.
- 3) **“Ketma-ketlikni top”**. Matematika yoki boshqa fanda bo'lsa ham bo'ladi. Raqamlarni birma-bir aralashtirib o'qib beramiz. 20,83,7,64,95,23,85,67,40,16. So'ng o'quvchidan 1 ta ixtiyoriy maqol aytib berishni aytamiz. Shundan keyin raqamlarni qaytarishni so'raymiz, to'g'ri qaytargan bola rag'batlantiriladi, xotira mustahkamlanadi.
- 4) **Ozingga ta'rif ber”**. Sinf o'quvchilar navbatma –navbat o'z nomlariga sifat qo'shib aytadilar. Keyingi o'quvchi oldin do'st, so'ngra o'zini ismini sifatga qo'shib aytadi. Masalan:

1-o'quvchi: Malika – muloyim;

2-o'quvchi: Malika-muloyim,Akram-aqlli;

3-o'quvchi: Malika-muloyim,Akram-aqlli; Qambar-quvnoq;

4-o'quvchi: Malika-muloyim,Akram-aqlli; Qambar-quvnoq; Jamshid-jasur

5-o'quvchi: Malika-muloyim, Akram-aqlli; Qambar-quvnoq; Jamshid-jasur, Gulzoda-go'zal va h.k.

Shu kabi o'yinlar o'quvchilar xotirasini mustahkamlaydi, eslab qolish malakasini shklanishiga yordam qiladi.

TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI.

O'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida aloxida o'rin tutadi. Barcha fanlarni o'qish darslarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ona tili darslari orqali o'quvchilarning DTS bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilimlarini, hamda o'quv-biluv ko'nikma va malakalarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan ona tili ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Bolalarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish, har bir o'quvchiga individual yondashishi, sinfda o'quvchilar uchun ijodiy muhit yaralishi mustaqil qarorlar qabul qilish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish orqali dars samaradorligini oshirishga undovchi amaliy metodlarni ishlab-chiqish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarb muammolaridan biri ekanligini xisobga olgan holda biz ham bitiruv malakaviy ishimizda ilgari surilgan fikr-mulohazalarni tajriba-sinovdan o'tkazish maqsadida Namangan shahridagi, 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinfi 4-“V” va 4- “B” sinf o'quvchilari bilan tadqiqot ishlari olib bordik.

Maktabda tajriba-sinov ishlarini 3-bosqichda amalga oshirildi:

1. Bosqich – Aniqlovchi.
2. Bosqich – Shakllantiruvchi.
3. Bosqich – Solishtirma.

Birinchi bosqichda biz 4-sinflarda dars o'tayotgan o'qituvchilarning mashg'ulot olib borish jarayonlarini kuzatdik, tahlil qildik. Shu bilan birga dars samaradorligini oshirishda o'qituvchilar qanday usullardan foydalanayotganlari haqida suhbatlashdik. O'qituvchilar bilan turli xil noan'anaviy usullarning qanday ijobiy samara berayotganligi haqida o'rtoqlashdik.

Reja asosidagi navbatdagi nazorat ishini o'tkazdik va 4-V va 4-B sinf o'quvchilariga “Jannat onalar oyog'i ostidadur” mavzusida bayon yozdirdik.


Bayon uchun tanlangan matn 76 so'zdan iborat bo'lib, 4 satr boshida yozilgan.

Tajribagacha bo'lgan natija.

1-JADVAL

BELGILANGAN ME'ZONLAR								
№	Matnning hajm jihatdan to'liqligi		Matndagi fikrlarning ketma-ketligi		Matndagi badiiy so'zlardan to'g'ri foydalanish		Matnni imloviy xatolarsiz yozilishi	
	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija
4-V (34 nafar)	16/ 47 %	18/ 53%	12/ 35%	24/ 70%	8/ 24%	26/ 76%	19/ 56%	15/ 44%
4-B (37 nafar)	14/ 38%	23/ 62%	13/ 35%	24/ 65%	8/ 22%	29/ 85%	22/ 60%	15/ 41%

1-diagramma



Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga bayon yozish yo'llarini o'rgatish uchun ularning bir necha qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilishi kerakligini isbotlash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirdik. O'quvchilarga bayon yozdirish albatta xotirani talab etadi, lekin og'zaki nutq rivojlangan bo'lsa, fikr namunadagidan ham mukammal bo'ladi.

Masalan: Darsda savollar asta sekin murakkablashtirib boriladi, konstruktiv mashqlar o'tkaziladi:

Bolalar oldin so'roq so'z o'rniga bir so'z qo'shib gap tuzgan bo'lsalar, keyinroq o'z so'zlarini ko'proq qo'shishga majbur bo'ladilar. Bolalar dalada nima qildilar? (***Bolalar dalada paxta terdilar. Bolalar dalada paxta terdilar va uni xirmonga to'kdilar***) yoki, Bolalar qayerda bo'ldilar? Ular nima qildilar? (***Bolalar dalada bo'ldilar. Ular paxta terdilar va xirmonga topshirdilar***). Sen tipratikan haqida nimalar bilasan? Nega qushlar uyasini buzish mumkin emas? kabi qiziqarli savollar beriladi. Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi; bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari:

1. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish. Bunda so'zlar grammatik materialning o'rganilishiga qarab uch variantda berilishi mumkin;

A) so'zlar tayyor ishlatiladigan shaklda beriladi: ***paxta, dalada, bolalar, terdilar, (bolalar dalada paxta terdilar)***;

B) o'rganilgan grammatik materialni hisobga olib, ayrim so'zlar bosh formada, boshqalari tayyor formada beriladi. Masalan, 2 – sinfda “Otlarda birlik va ko'plik” rejasi o'tilgach, ***paxta, dalada, bola, terdilar*** shaklida berilishi mumkin:

V) barcha so'zlar bosh formada beriladi: ***paxta, dala, bola, termoq***.

2. Nuqtalar qo'yilmagan bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini ajratish, bu mashq bolalarni o'z nutqlaridan gaplarning chegarasini ajratishga, gapni to'g'ri o'qish va yozishga qaratadi.

3. Berilgan sodda gaplarni so'roqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi. Masalan, ***Qushlar uchib keldi***. Qayerdan uchib keldi? ***Qushlar sovuq mamlakatlardan uchib keldi***. Qayerga uchib keldi? ***Qushlar sovuq mamlakatlardan o'z uyalariga uchib keldi***.


4. Berilgan sintaktik sxema (formula) asosida gap tuzish.



II. d. b

II.d.b

Chaqqon bolalar olma terdilar.



Ishchan bolalar oppoq paxtalarni zavqlanib terdilar.

Biz ta`limdagi o`qituvchilar qo`llayotgan usullarni tasnif qilgan holda nutq o`stirishdagi asosiy ijodiy mashqlarni quydagi tizimga soldik.

O`quvchi xotirasini shakllantirish uchun foydalaniladigan usullar:

1. Berilgan so'zning sinonimi, antonimini topish.
2. Berilgan so'zni izohlash.
3. Berilgan so'z ishtirokida gap tuzish.
4. Gapdagi so'zlarni almashtirish.
5. Belgini bildirgan so'zlarni almashtirish.
6. Harakatni bildirgan so'zlarni almashtirish.
7. Gapning egasini o'zgartirish.
8. Gapning kesimini o'zgartirish.
9. Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini ozgartirish.
10. Darak gapni o'zgartirish.
11. So'roq gapni o'zgartirish.

12. Gapni to'ldirish.
13. Gapdagi xatoni tuzatish.
14. Yig'iq gapni yoyiq gapga aylantirish.
15. Uyushiq bo'laksiz gapni uyushiq bo'lakli gapga aylantirish.
16. Rasm asosida gap tuzish.
17. Mavzu asosida gap tuzish.
18. Rasm asosida hikoya tuzish.
19. Mavzu asosida hikoya tuzish.
20. Bayonning barcha turlarini o'tkazish.
- 21 . Maktublar yozdirish.

5. Berilgan gapga o'xshash, masalan, uyushiq egali yoki kesimli, sodda yoyiq gar tuzish. Bunda o'quvchilarga **Quyosh yoritadi va isitadi** kabi gap beriladi; o'quvchi **Ravshan o'qidi va ishladi** kabi gap tuzadi.

6. Ikki – uch sodda gapdan bitta uyushiq bo'lakli sodda gap tuzish. Masalan, **Bahorda qaldirg'ochlar issiq mamlakatlardan uchib keladi. Bahorda laylaklar ham uchib keladi** gaplaridan uyushiq bo'lakli **Bahorda qaldirg'ochlar va laylaklar issiq mamlakatlarga uchib keladi** gapi tuziladi.

Ijodiy mashqlarda o'quvchilar o'zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang'ich sinflarda ijodiy mashqlarning quydagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o'quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar; **daryo** yo **qushlar** kunda bizning **dala**, yoki **quyon** va **tipratikan** haqida gap tuzish.

2. Predmet, rasm yoki syujetli rasm beriladi, o'quvchilar rasm asosida bir gap yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki uchta “Tayanch” so'z beriladi, o'quvchilar shu so'zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so'z sifatida bolalarning aktiv lug'atiga aylantirish zarur bo'lgan so'zlar olinadi.

Bunday mashqlar o'quvchilarni nutqini o'sishiga bevosita yordam beradi.

Bog`lanishli matn ustida ishlashda ijobiy ishlar o`tkazish.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o`zaro bog`langan ma`noli qismlarga bo`linadigan nutq ***bog`lanishli nutq*** deyiladi.

Bog`lanishli nutq birligi deb hikoya, maqola, roman, monografiya, ma`ruza, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o`quvchi va o`qituvchi bergan savollarga o`quvchilarning keng, mukammal og`zaki javobini, yozma bayon va inshoni hisoblash mumkin.

Boshlang`ich sinflar metodikasida bog`lanishli nutqdan mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- berilgan savolga keng, mukammal javob;
- o`qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o`rganish;
- o`quvchilar lug`atini aktivlashtirish bilan bog`liq holda har xil matnli mashqlar;
- muntazam o`tkaziladigan kuzatishlarni yozish,
- ob – havo kundaligini yuritish.
- o`qilgan matnni turli variantda og`zaki qayta hikoyalash;
- berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o`quvchilarning og`zaki hikoyasi;
- badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o`quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish.
- ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she`r, hikoya tuzish;
- namunasi berilgan badiiy ilmiy – ommabop matn asosida bayon yozish;
- o`qituvchi bergan matnni og`zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilar);
- har xil turdagi yozma insho.

Bu mashqlarning hammasi nazaryasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasini tuzib olinadi.

Xotirani charxlovchi usullardan yana biri qayta hikoyalashdir:

Qayta hikoyalashning turli yo'llari:

1. Shaxsni o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon. Boshlang'ich sinflarda I shaxs tilidan berilgan hikoyani III shaxs tilida qayta hikoya qilishdan ko'proq foydalanadi. Bu turda o'quvchilar hikoyadagi gaplarni qayta tuzadilar. Masalan, I shaxs tilidan berilgan Oybekning "Musicha" hikoyasini III shaxs tilida qayta hikoyalash vazifasi beriladi, lekin gapning kesimi o'qituvchi tomonidan o'zgartirib berilishi kerak edi, so'ng unga mos ravishda gapni o'zini qayta tuzdilar.

2. Hikoyada ishtirok etuvchi biror personaj tilida qayta hikoya qilish. Bu usulni ko'proq o'qish darslarida, og'zaki olib boriladi. Masalan, "Kuchukcha bilan uloqcha" hikoyasida kuchukcha yoki uloqcha tilida qayta hikoya qildirish mumkin.

3. Matnni ijodiy to'ldirib qayta hikoyalash. Bunda deydi, bolalar hikoya mazmunini tushunsalargina, uni ijodiy to'ldirib qayta hikoyalay oladilar. Bu asosan og'zaki tarzda olib boriladi. Masalan, "Kuchukcha bilan uloqcha" hikoyasida "Kuchukcha bilan uloqcha qayerda uchrashib qoldi?" so'rog'iga javob berish uchun, o'z mulohazalarini qo'shib, matnni ijodiy to'ldirib qayta hikoya qiladilar. Mazmun to'la bo'lgunicha savollar beriladi.

4. So'z bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish. Ijodiy qayta hikoyalashning bu turi savollar yoki quyidagi kabi topshiriqlarni bajartirish asosida o'tkaziladi. "Siz darsdan so'ng nima qilmoqchisiz? Shu voqealar ko'z oldingizda o'tyapti, siz ko'ryapsiz, eshityapsiz va o'zingiz tasvirleyapsiz". Matndagi tabiat tasviriy, qahramonlarining tashqi ko'rinishi, portreti so'z bilan tasvirlashga topshirilishi mumkin. Bu asosan og'zaki bajariladi, ayrim hollardagina bayon shaklida yozdiriladi.

Bu turdan foydalanilsa o'quvchilar uchun juda foydali bo'ladi. Bundan tashqari og'zaki va yozma qayta hikoyalashga qo'yilgan talab asosida ish olib borilgan bo'ladi, ya'ni o'quvchilarning hayotiga bog'lash, ya'ni o'qilgan matn

mazmuniga bog`liq holda o`quvchilarning shaxsiy tajribasida uchraydigan va uchragan analogik holatga e`tibor berish. Boshqacha qilib aytganda, har bir darsda ma`lum ta`lim maqsadida qayta hikoyalashga muntazam o`rgatib borish zarur.

Bu qonun-qoidalar asosida olib borilgan ishlar yaxshi natijalar olib keladi. Ijodiy qayta hikoyalash va bayon ishlari o`quvchilar nutqini o`shiga ularni ijodkorlik qobiliyatlarini o`shiga yordam beradi.


Bog`lanishli nutqni shakllantirishda xotiraning ahamiyati katta.

Bayon o'quvchi ijodiy faoliyatining bir shakli bo'lib, nutqni shakllantiruvchi asosiy ish turi hisoblanadi. U o'quvchi yaratgan yozma matnning oliy shaklidir. Bayon mustaqil ravishda yaratiladigan o'ziga xos ijodiy, badiiy asar bo'lib, o'quvchining dunyoqarashi, saviyasi, bilimi, tafakkuri va hatto tarbiyalanganlik darajasini va xotirasini belgilab beradi. «Bayon shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, eshitganlarini aynan qayta hikoyalasjga, o'qituvchini diqat bilan eshitishga o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishini topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bayon fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi».⁹

⁹ Qosimova K. Boshlangich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T. "O'qituvchi" 1985-yil, 202-bet.

BELGILANGAN ME'ZONLAR								
№	Matnning hajm jihatdan to'liqligi		Matndagi fikrlarning ketma-ketligi		Matndagi badiiy so'zlardan to'g'ri foydalanish		Matnni imloviy xatolarsiz yozilishi	
	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija
4-V (34 nafar)	23/ 67 %	11/ 32 %	18/ 53 %	16/ 47 %	17/ 50 %	17/ 50%	25/ 73 %	9/ 26%
4-B (37 nafar)	17/ 46 %	20/ 54 %	16/ 43 %	21/ 57 %	11/ 30 %	26/ 70 %	25/ 67%	12/ 32%


2-diagramma



Tajriba sinfining tajribagacha va tajribadan keyingi natijalar.

BELGILANGAN ME'ZONLAR								
№	Matnning hajm jihatdan mutanosibligi		Matndagi fikrlarning ketma-ketligi		Matndagi badiiy so'zlardan to'g'ri foydalanish		Matnni imloviy xatolarsiz yozilishi	
	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija	Ijobiy natija	Salbiy natija
4-V tajribagacha	16/ 47 %	18/ 53%	12/ 35%	24/ 70%	8/ 24%	26/ 76%	19/ 56%	15/ 44%
4-V Tajribadan keyin	23/ 67 %	11/ 32 %	18/ 53 %	16/ 47 %	17/ 50 %	17/ 50%	25/ 73 %	9/ 26%

3-diagramma



Solishtirma bosqichda ko'rinib turganidek tajribagacha va tajribadan keyingi natijalarda 1-me'zon bo'yicha 47 % dan 67 % gacha ko'tarilganligi aniqlandi, 2-me'zon bo'yicha 35 % dan 53 % gacha, 3- me'zon bo'yicha 24 % dan 50 gacha, 4-me'zon 56 % dan 73 % gacha ko'tarilganligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib qo'llanilgan usullar o'z tasdig'ini topdi desak bo'ladi. Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib quyidagi xulosa va tavsiyalarni berdik:

XULOSA VA TAVSIYALAR

Millat tafakkurini rivojlantiruvchi, ma'naviyat va mafkurani ko'rsatib turuvchi asosiy mezon –tildir. Ona tili ta'limidan asosiy maqsad nutq san'atini mukammal egallagan mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va muloqat madaniyatini rivojlangan ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdir. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, ona tili ta'limi – o'qituvchilarning kuzatish, anglash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish qiyoslash va tasnif qilish layoqatini, mantiqiy tafakkur darajasini o'stirish. – o'quvchilarning o'zligini moddiy boylikni voqea –hodisalarni milliy tilning ifoda vositalari orqali idrok etish hamda o'z fikri dunyoqarashi his –tuyg'ularini mashhur til imkoniyatlaridan foydalanib, go'zal til tarzda aniq va ravon ifodalay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi tizimi o'quvchining ijodiy tafakkuri rivojlantirishni o'z fikrini erkin va mustaqil ifodalay olishga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Buning uchun.

– o'quvchilarning tevarak atrofiga buyum, narsa hosilar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish.

– mazkur buyum va hodisalar asosidagi sabab shart –qarama qarshi munosabatlarni to'g'ri farqlay olish qobiliyatini shakllantirish

– o'z fikrini erkin va ravon ifodalay olish, o'z bilganlarini boshqalarga yetkaza bilish malakalarini rivojlantirish lozim.

Respublikamizda ta'lim tizimlarining boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich sinflarda o'quv samarasini oshirish o'quvchi va o'qituvchilarning o'rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlik, pedagoglarning o'zaro hamkorlik jamoasida ilmiy potentsialni kuchaytirish, haqiqiy ijadkorlik va izlanuvchanlik ruhida yo'g'rilgan ifobiy muhitni hosil qilish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Ayniqsa bosh maqsadi yosh avlodni hayonga tayyorlash bo'lgan boshlang'ich sinfda mazkur masalaning to'g'ri yechilishi, topilishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi nazorat ishi qoniqarli yaratilishi uchun uning lug'at boyligi ko'p bo'lishi kerak. O'quvchining xotirasi yaxshi bo'lsa ijodiy ishlardan bayon to'liq yoziladi.

O'quvchi ongini izlanish va ijodga undash savol va topshiriqlar bilan maqsadli rivojlantirish ularda ma'naviy barkamollikni ta'minlash ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish izchil va keng qamrovda fikr ifodalash malakasini shakllantirish jarayoni shu tariqa hosil qilinadi va takomillashtirib boriladi. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun o'quvchiga beriladigan har bir topshiriq ularda so'zga ehtiyoj hissini hosil qilishi matn yaratish malakasini rivojlantirishiga qaratilgan bo'lishi, ularda badiiyatga, ijodga, komil fozillikka havas uyg'otishi lozim.

Dars mashg'ulotlari ana shunday bosqichli ketma –ketlik, uzluksizlik prinsipiga asoslanib olib borilsa, shuningdek, o'quvchi xususiyatdan umumiyga (matn yaratish) umumiydan xususiyatiga (matn tahlil qilish) qarab borish mustaqil ijodiy mushohada yuritishning eng muhim vosita va usullari bilan bevosita tanishtirib borilsa, bolaning nutqiy faoliyati shakllanadi, rivojlanadi va taraqqiy etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni **tavsiya** etamiz.

1. Bayon yozishda matnning asosiy o'rinlarini eslab qolish.
2. Bayon yozishda grammatik qoidalarga amal qilish.
3. Mavjud manbani qismlarga bo'lish malakasini shakllantirish.
4. Matnga reja tuzish va uni imlo xatolarsiz yozishga e'tibor berish.
4. Bayon yozishda ko'proq ijodiy bayonga e'tibor berish lozim.
5. Yozma ishlardagi xatolarni asosli tushuntirish kerak.
6. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish orqali ularning nutq faoliyati ham oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Ijtimoiy –siyosiy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod”. “Toshkent” 1997 yil 9–bet.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch”. Toshkent. “ma’naviyat” nashriyoti. 2008 yil. 4–bet.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent. 2010 yil 15–bet.
4. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirishi, xalqimiz Faravonligini oshirishga xizmat qiladi”. “Ma’rifat” gazetasi № 7. 2011 yil 4–bet.
5. Karimov I.A. Bizning yo’limiz –demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonini ideal davom ettirish yo’lidir. // xalq so’zi gazetasi. 2011 yil 8 –dekabr.
6. Karimov I.A. “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. Toshkent. “O’zbekiston” nashriyoti 2011 yil 160–bet.
7. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. // Xalq so’zi gazetasi. № 14. 2012 yil 4–bet.
8. Karimov I.A. Yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalapsh–eng muqaddas maqsad. // xalq so’zi gazetasi № 35. 2012 yil. 4–bet.
9. Karimov I.A. “Mustahkam oila yili” davlat dasturi to’g’risida. Toshkent. 27 –fevral

II. Ilmiy –uslubiy adabiyotlar

1. Abdullajanova M. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’zlashtira olmaslik sabablari // “Xalq ta’limi” jurnali № 6, 2002 yil, 51–bet.
2. Aliboyev T. Ijodkorlik ishlarini takomillashtirishning manozarali usul va tashkiliy bosqichlari // “Uzluksiz ta’lim” jurnali. № 1, 2009 yil, 19 –bet.
3. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti // “Boshlang’ich ta’lim” jurlani № 5, 2005 yil.
4. Ergasheva A. Ona tili darslarida rasmlar vositasida mazmundor gaplar tuzish. // “Uzluksiz ta’lim” jurnali. № 2, 2006 yil, 59 –bet.

- 5.P. Ikromova va boshqalar. ona tili 4-sinf uchun darslik. Toshkent. “O’qituvchi” 2008 yil
6. Ivanova Y.V. Razvitiye logicheskogo mishleniya na urokax. Nachalnaya shkola plyus do i posle.-2006.-№ 6.-str.59-60
7. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti. Toshkent. 2010 yil.
8. Qosimova Q va boshqalar. “Ona tili o’qitish metodikasi”. Toshkent “Noshir”, 2009 yil.
9. Oxunjonova O. Matn yaratish jarayonida sinonimlardan foydalanish. // “Til va adabiyot ta’limi” jurnali № 2 2008 yil 7–bet.
10. Sobirova N. O’qituvchilar bilimni mustahkamlash // “Boshlang’ich ta’lim” jurnali. № 10. 2006 yil. 24–bet.
11. Tixomirova L.F. Basov A.V. Razvitiye logicheskogo mishleniye detey. –Yaroslavl: TOO Akademiya razvitiya, 1996. – 240-str.
12. Xudoyberganov A. O’quvchilarda ijodkorlik ko’nikmalarini shakllantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida // “Uzluksiz ta’lim” jurnali. № 3, 2008 yil, 90 bet.
13. Yusupov M. Boshlang’ich sinf ona tili ta’limining o’ziga xos xususiyatlari. Namangan. 1994 yil.
14. G’oziyev E. Meliboyeva V. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari //“Xalq ta’limi” jurnali № 3, 2009 yil 67–bet.
15. Nazareva B. Ijodkorning pedagogikasida qiziquvchanligini rivojlantirish masalalari // “Xalq ta’limi” jurnali № 3, 2009 yil 93 –bet.
16. Hamroyev A. Ona tili ta’limida nutq va til mutanosibliigi // “Xalq ta’limi” jurnali № 2, 2008 yil. 19 –bet.
17. Shokirova Z. Ijod etmoq, yaratmoq uchun dildan ishlamoq darkor. // “Boshlang’ich ta’lim” jurlani № 1, 2009 yil. 2–bet.
18. Qorayev Z. O’quvchi shaxsi ham obyekt, ham subyekt. //“Boshlang’ich ta’lim” jurlani № 1, 2009 yil. 26–bet.

19. Gaffarova T. Interfaol metodlar –ta’lim samaradorligi // “Boshlang’ich ta’lim” jurlani № 6, 2009 yil. 10–bet.

20. Yusupov M. O’qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent, “O’qituvchi” 1990 yil.

21. Ismoilov T.J. O’quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi // “Uzluksiz ta’lim” jurnali. № 1, 2009 yil, 69 bet.

22. Qo’shinova R. O’quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini o’stirishida mustaqil fikrlashning o’rni. // “Xalq ta’limi” jurnali № 3, 2009 yil, 74 bet.

23. Rajabboyeva I. Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o’rni. // “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. № 1. 2009 yil. 70–bet.

24. Safarova R. Boshlang’ich sinflarda chuqurlashtirilgan ona tili ta’limining mazmuni. // “Uzluksiz ta’lim” jurnali №2, 2009 yil, 3–bet.

25. Turg’unov S. O’quvchilarning mustaqil fikrlash tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish vositalari // “Uzluksiz ta’lim” jurnali. № 2, 2009 yil, 17 –bet.

26. Sharipov Sh. O’quv chilarning ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish. // “Xalq ta’limi” jurnali № 4, 2003 yil, 34–bet.

27. Hojiboyeva Z. Ona tili darsida bayon va topshiriqlar metodi. // “Xalq ta’limi” jurnali, № 4, 2003 yil 79–bet.

28. Fayzullayeva N. O’quvchi shaxsini shakllantirishda o’qituvchi pedagogik ijodining imkoniyatlari // “Uzluksiz ta’lim” jurnali, № 4, 2006 yil, 10 – bet.

29. Qulnazarov B. O’quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini o’stirish omillari. // “Xalq ta’limi” jurnali, № 2, 2006 yil, 130 –bet.

30. Qilichiyev E. Yozma ishlardagi hatolarni aniqlash va ularning tasnifi haqida. // “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, № 4, 2006 yil, 16–bet.

III. Internet ma’lumotlari

1. WWW.referet.uz
2. WWW.pedagog.uz
3. WWW.ziyoNET.uz

Mavzu: “Boshlang’ich sinf o’quvchilarni bayon yozishga o’rgatish metodikasi”

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I bob.	Boshlang’ich sinf ona tili darslarida nazorat ishi o’tkazish muammo sifatida.	14
1.1.	Boshlang’ich sinf o’quvchilarining mantiqiy fikrlashini o’stirish orqali ijodiy nazorat ishlari samarasini oshirish yo’llari.	14
1.2.	Boshlang’ich sinf ona tili darslarida bayon yozdirish jarayonida xotiraning ahamiyati.	25
II bob.	Boshlang’ich sinf ona tili darslarida nazorat ishi o’tkazishning samarali shakl va metodlari.	34
2.1.	Boshlang’ich sinf o’quvchilarini bayon yozishga o’rgatish yo’llari.	34
2.2.	Ona tili darslarida lug’at ishi va uning bayon yozishdagi ahamiyati.	43
2.3.	Nazorat ishlarida xatolarning turlari va ularni bartaraf etish yo’llari.	53
	Tajriba- sinov ishlari	63
	Xulosa va tavsiyalar	74-75
	Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	76-78